

SAN'ATSHUNOSLIKDA  
O'ZBEK MUSIQA MEROSINING  
AHAMIYATI



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “San'atshunoslik”(turlari bo'yicha) yo'nalishi
- ❖ Professor Ibragimov Oqilxon Akbarovich

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:**

O‘zDSMI “Musiqiy-nazariy fanlar” kafedrasи professori, san’atshunoslik fanlari doktori Oqilxon Ibragimov.

**Taqrizchilar:**

O‘zDSMI “Musiqiy-nazariy fanlar” kafedrasи mudiri, san’atshunoslik fanlari nomzodi Davlat Mullajonov;

O‘zDK “Maqom tarixi va nazariyasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi Xolmirza Qurbonov

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonнома)

## MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	13
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	20
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	37
V.	KEYSLAR BANKI.....	46
VI.	GLOSSARIY.....	51
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	55



I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

#### **“San’atshunoslikda o‘zbek musiqa merosining ahamiyati” modulining maqsadi:**

- hozirgi kunda o‘zbek musiqa merosining jamiyatimiz ijtimoiy hayotidagi o‘rni, musiqiy – tarixiy jarayon bilan tanishtirish, musiqiy - nazariy merosni o‘rganish, mahalliy uslublarni tahlil qilish, maqom turkumlarining tuzilishini chuqur o‘rganish, maqom namunalarini tahlil qilish hamda boy musiqa adabiyoti bilan tanishtirishdan iborat.

#### **“San’atshunoslikda o‘zbek musiqa merosining ahamiyati” vazifalari:**

- esa musiqiy tarixiy jarayon bilan tanishtirish, musiqiy nazariy merosni o‘rganish va tahlil qilish, mahalliy musiqiy uslublarni;
- farqlay olish, turli maqom turkumlarining tuzilishini tahlil qilish, maqom musiqa namunalarini tanlab tahlil qilish;
- o‘zbek mumtoz musiqa adabiyotiga dahldor ilmiy va o‘quv adabiyotlarni o‘rgatish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**“San’atshunoslikda o‘zbek musiqa merosining ahamiyati” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:**

### **Tinglovchi:**

- o‘zbek mumtoz musiqa merosining mazmun, mohiyatini, o‘zbek mumtoz musiqasi va maqomlar borasida YUNESKO tomonidan va O‘zbekistonda qabul qilingan qonun hujjatlari va huquqiy-normativ hujjatlarni va maqomlarning ta’lim muassasalarida o‘rganilishiga qaratilgan maqsad va vazifalarni **bilishi** lozim;
- san’atshunoslikda an’anaviy va zamonaviy san’atlar xususiyatini o‘rganish, san’atshunoslik obyektlari doirasining kengayib borish xarakterini tahliliy baholash, ta’limda xorijiy tajribalardan keng foydalangan holda dars sifati va samaradorligiga erishish, ta’limda integratsion jarayonlar o‘rni va ahamiyatini baholash **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- O‘zbekiston san’atshunosligidagi ilg‘or yangi tendensiyalar va metodologik o‘zgarishlarni ilmiy-o‘quv faoliyatida keng qo‘llash, san’atshunoslik fani an’analariga vorisiylik asosida yondoshuv amaliyotidan foydalana bilish va ta’lim modernizatsiyasida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tajribalarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

### **Modulni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar**

**“San’atshunoslikda o‘zbek musiqa merosining ahamiyati”** moduli hozirgi kunda ijtimoiy hayotidagi o‘rni, uni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish, ushbu merosning avvalgi va zamonaviy holatini solishtirish orqali uning hozirgi kunda qay darajada ta’lim tizimida o‘rganilayotganligi misolida yangi zamonaviy shakl va uslublarni amaliyotga tatbiq etish va boshqalarni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shuningdek, o‘zbek mumtoz (kasbiy) madaniyati bo‘lmish betakror maqom san’atining asoslari bilan tanishtiradi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“San’atshunoslikda o‘zbek musiqa merosining ahamiyati” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “San’atshunoslikning dolzarb masalalari”, “San’atshunoslikda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish”, “San’atshunoslikning zamonaviy tendensiyalari”, o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta’lim muassasalarida nomoddiy madaniy merosning o‘rganilishini ta’minlash, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo‘llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	<b>Modul mavzulari</b>	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	nazariy	amaliy	ko'chma
1.	O'zbek xalq musiqa merosi.	2	2		
2.	Maqom musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari bilan ajralib turishi masalalari. Shashmaqom.	2		2	
3.	Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, Xorazm maqomlari	2	2		
4.	O'zbek xalq musiqasi lokal uslublari (Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpoq)ga xos asarlarni tinglash	4		4	
5.	Shashmaqom cholg'u va nasr yo'llaridan tinglash. Maqom musiqa, she'riyat va raqs san'atlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy durdonalar.	4		4	
6.	Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan namunalar tinglash	2		2	
7.	Xorazm maqomlaridan tinglash	2		2	
<b>Jami:</b>		<b>18</b>	<b>4</b>	<b>14</b>	

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-mavzu: O'zbek xalq musiqa merosi(2 soat).

O'zbek xalqi musiqiy merosining milliy badiiy-ma'naviy qadriyatlarning qayta tiklanish jarayonidagi ahamiyati. O'zbek musiqa merosi va uning ikki asosiy qatlamga bo'linishi: xalq musiqasi (musiqiy folklor) hamda kasbiy musiqa (ustozona musiqa) haqida ma'lumotlar beriladi.

Ashula yo'llari asosan diniy-falsafiy, ishqiy va pand-nasihat mazmundagi mumtoz she'riyat namunalari (Navoiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab va b.) asosida kuylanishi. Ularning ichki tuzilish qonuniyatları, daromad, miyonparda, dunasr, avj, tushirim (furovard) nomli bo'limmalarning mazmun-ma'nolar mohiyati, avjlarda namudlarning qo'llanilishi. Taronalar. Ularning sho'balar orasida o'ziga xos

bog‘lovchi bo‘lib kelishi va vazifalari. Suporish haqida tushuncha. Turkumning Ufar nomli ashula qismlari bilan yakunlanishi. Buzruk maqomi birinchi guruh sho‘balar turkumining muxtasar sharhi. (Tinglash uchun Sarxbori Buzruk, Talqini Uzzol, Nasrulloi, Saraxbori Navo, Ufari Uzzol).

Ikkinci guruh ashula yo‘llarinig o‘ziga xosligi. Ularning Shashmaqom turkumida nisbatan kech shakllanganligi va ularda nazirago‘ylik an’anasining aks etishi. Savt va Mo‘g‘ulcha nomli sho‘balarning yetakchiligi hamda har birining Talqinchcha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar nomli shoxobchalarga egaligi.

Shoxobchalarning yuzaga kelishida asosiy sho‘balar (Savt, Mo‘g‘ulcha)ning kuy-ohanglar saqlanib, doyra usullarining o‘zgarib borishi. Bu qonuniyatatlarni Mo‘g‘ulchai Buzruk va uning shoxobchalari misolida namoyon bo‘lishi. Talqinchcha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar usullarining tuzulish xususiyatlari. Shashmaqomning mashhur ijrochilar: Ota Jaloliddin Nosirov, Ota Hiyos Abdug‘ani, Domulla Halim Ibodov, Boboxonov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Yunus Rajabiy va uning maqom ijrochilik san’ati borasidagi faoliyati.

## **2-mavzu: Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, Xorazm maqomlari(2 soat).**

Farg‘ona-Toshkent yoki Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari o‘zbek maqomotining uchinchi asosiy turi sifatida. Uning yuzaga kelishi, uzil-kesil shakllanishi to‘g‘risidagi ilmiy ma’lumotlar, yangi fikr-mulohazalar. Ashula va cholg‘u maqom yo‘llarinig tarqoq holda, ya’ni alohida-alohida turkumli va turkumsiz asarlar sifatida yetib kelganligi. Xorazm maqomlari kabi yaxlit majmuani tashkil etmaganligi. Buning asosiy sabablari haqida fikr-mulohazalar.

“Chormaqom” atamasini ilgari surilish, bunga nisbataan bildirilgan tanqidiy qarashlar. Ushbu nomlanishining sun’iyligi, noo‘rinligi, iste’moldan chiqishi. Nasrullo, Ajam, Misktin, Dugoh kuylarini tinglab tahlil etish.

Farg‘ona-Toshkent maqom ashula yo‘llari (cholg‘u yo‘llari kabi) alohida bo‘lgan bir qisqli («Segoh», «Toshkent Irog‘i», “Munojot” va b.) namunalardan tortib ko‘p qisqli ashula turkumlarni namoyon etadi. Ayniqsa, besh qismdan iborat turkum ko‘rinishi nisbiy muqim tusini olgan. Xususan, «Chorgoh», «Bayot», «Bayoti-Sheroziy», «Gulyor-Shahnoz» singari ashula yo‘llari aynan besh qismdan iborat turkumli asarlar.

Xorazm maqomlarining shakllanishi masalasiga doir tarixiy ma’lumotlar. Buxoro maqomlari hamda Xorazm maqomlari o‘zaro munosabatlari. Ularning mushtarak hamda farqli, tafovutli tomonlari. Tashqi va ichki, son va sifat ko‘rsatqichlari. Xorazm maqomlarining ijrochiligidagi izohlar.

Xorazm maqomlarining cholg‘u bo‘limning umumiyl tuzilishi. Xorazm dutor maqomlari. Asosiy hamda noasosiy qismlar. She’riyat manba’lari, ulardan foydalanish odatlari.

Xorazm maqomlarining aytim bo‘limi yoki Manzum nomli bo‘limning umumiyl tuzilishi. Tani maqom tushunchasi. Asosiy hamda noasosiy qismlar. She’riyat manba’lari, ulardan foydalanish odatlari.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Ma’ruzadan so‘ng rejalahtirilgan dastlabki uch mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ma’ruza mashg‘ulotining mavzusi asosida tashkil etiladi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda, shuningdek pedagog tomonidan taklif etilgan yo‘nalish bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriq yozma, savol-javob tarzida yoki amaliy ijro yoki boshqa shaklda bajarilishi mumkin.

Nazariy ta’lim rejalahtirilmagan amaliy mashg‘ulotlar quyida keltirilgan rejalar asosida tashkil etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga bo‘lgan munosabatini yozma, og‘zaki javob yoki amaliy ijro ko‘rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko‘zda tutilgan. Amaliy mashg‘ulotlardagi rejalahtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo‘srimcha vositalar, shuningdek maqom ansambllari yoki folklor jamoalari bilan amaliy ishslash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

### **1-amaliy mashg‘ulot. Maqom musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari bilan ajralib turishi masalalari. Shashmaqom (2 soat)**

Maqom musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari bilan ajralib turishi masalalari. Shashmaqom O‘zbek xalqi musiqiy merosida maqom janrining tutgan o‘rni. Shashmaqom atamasining izohi. Olti maqom turkumini tashkil etgan maqomlar: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq. Shashmaqomning 18-asr o‘rtalarida Buxoro shahrida uzil-kesil shakllanishi. Bunda olti asosiy parda (mukammal tuzuklar) uyushmasi va ular asosida yaratilgan cholg‘u kuy va ashula yo‘llarining mujassam etilganligi.

Maqomning tarkibiy bo‘limlari. Har bir maqom cholg‘u (Mushkilot) va ashula (Nasr) bo‘limlaridan tashkil topishi.

Cholg‘u bo‘limidagi asosiy qismlar – Tasnif, Tarje’, Gardun, Muxammas, Saqil. Ushbu atamalarning lug‘aviy ma’nosi hamda maqom «matnida» doyra usullarining nomini anglatishi, usullarning qismdan-qismga tobora murakkablashib borishining izohi.

### **2-amaliy mashg‘ulot: O‘zbek xalq musiqasi lokal uslublari (Buxoro-Samarqand, Farg‘ona-Toshkent, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpoq)ga xos asarlarni tinglash. (4 soat)**

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar O‘zbek xalq musiqasi lokal uslublari – Buxoro-Samarqand, Farg‘ona-Toshkent, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpoq hududiga xos asarlaridan namunalar tinglab tahlil qilinadi.

Shuningdek, sohaga oid qabul qilingan qonun hujjatlari, YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida qabul qilingan hujjatlar, Respublikamizda milliy mumtoz musiqa san’atini yanada keng targ‘ib qilish bo‘yicha olib borilayotgan chora tadbirlar, har bitta hujjatning mazmun-mohiyati, unda qo‘yligan vazifalar va ushbu vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlari, sharoitlari

to‘g‘risida fikr almashadilar. Ushbu hujjatlarni talabalarga yaxshi va zamonaviy axborot vositalari yordamida tushuntirish yo‘llarini birgalikda izlab topadilar.

### **3-amaliy mashg‘ulot: Shashmaqom cholg‘u va nasr yo‘llaridan tinglash. (4 soat)**

Tinglovchilar tomonidan o‘zbek musiqa merosi borasida qabul qilingan qonunlar taqqoslanadi, ularning takomillashuv jarayoni tahlil etiladi, O‘zbekistonda musiqa merosining ahamiyati bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Buning uchun tinglovchilar mustaqil ravishda xorijiy adabiyotlar va INTERNETdan qo‘srimcha ma’lumotlar to‘playdilar hamda mavzu bo‘yicha ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini namoyish etadilar.

### **3-amaliy mashg‘ulot: Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan namunalar tinglash (2 soat).**

Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar orasida nomoddiy madaniy merosning sohalari bo‘linadi va har bitta tinglovchi o‘zbek musiqa merosning tegishli sohasi bo‘yicha o‘z ma’lumotlarini taqdimot (prezentatsiya) ko‘rinishida taqdim etadi. Tinglovchilar tomonidan sohaga oid bo‘lib, qamrab olinmagan tur va janrlar muhokama etiladi va to‘ldiriladi..

### **4-amaliy mashg‘ulot: Xorazm maqomlaridan tinglash(2 soat).**

Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar orasida nomoddiy madaniy merosning sohalari bo‘linadi va har bitta tinglovchi o‘zbek musiqa merosi bo‘yicha o‘z ma’lumotlarini taqdimot (prezentatsiya) ko‘rinishida taqdim etadi. Tinglovchilar tomonidan sohaga oid bo‘lib, qamrab olinmagan tur va janrlar muhokama etiladi va to‘ldiriladi. O‘zbek musiqa merosining ro‘yxatlariga kiritilgan nomzodlar o‘rganiladi, yana qaysi nomzodlarni ro‘yxatga kiritish yoki qicharib tashlash, boshqa ro‘yxatga o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilanildi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko‘chma mashg‘ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

**Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo‘roni)** – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Metodning maqsadi: aqliy hujum vaqtida tinglovchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbولي va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta’minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlarga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Har bir guruuh ichida umumiy muammoning bir jihatni hal etiladi.

**Namuna:** Guruhga muammoli vaziyat beriladi, misol uchun orkestrni tashkil etuvchi kollektivdagi psixologik vaziyat yomonlashib, konflikt chiqadigan darajaga yetib kelgan. Muammoni hal qilish bo‘yicha jamoali aqliy hujum, iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishi tashkillashtiriladi.

Bu fikrlar tanqid qilinmasdan, ular orasidan eng samaralisi, maqbولي, ya’ni vaziyatni normallashuvga olib kelishi mumkin bo‘lgan fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

**«Keys-stadi»** - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'inining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys.** Leonardo da Vinci “Monna Liza” kartinasini chizayotganda asar qahramonining ichki dunyosini ochib bermaganida asar kartina darajasiga ko'tarilmadi?

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif

etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** “**Tarixiy yoki maishiy mavzudagi ko‘pqomatli kompazitsiya asarining g‘oyasi**”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

**Metodni amalgalashish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilari</b>	1-matn	2-matn	3-matn
------------------	--------	--------	--------

“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalgalashish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### “Blits o‘yin” metodi

**Metodning maqsadi: tinglovchilarda** tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalahtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

**Metodni amalgalashish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yoki biror bir kartina yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlari o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqorida pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqorida pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-mavzu. O‘zbek xalqi musiqa merosi

##### Reja

1.1. O‘zbek xalqi musiqa merosiga bir nazar.

1.2. XVI-XIX asrlar davomida Turkiston xonliklaridagi mahalliy musiqiy an'analar.

1.3. Musiqa madaniyati va uning hayotdagi o‘rni.

**Tayanch so‘zlar:** *Musiqa, meros, folklor, tarix, ustozona, og‘zaki, kuyohanglar, ma’naviyat, asrlar, nota yozuvi, an’nanaviy, Afrosiyob, marosim, urf-odat.*

##### **1.1. O‘zbek xalqi musiqa merosiga bir nazar.**

Har bir xalqning o‘ziga aziz ona tili bo‘lganidek, qadrdon kuy-ohanglariga asoslangan milliy musiqasi ham bo‘ladi. Bu xil musiqaning beqiyos va bebaholigi shundaki, unda xalqning ma’naviy boyligi, o‘tmishi-yu buguni, ezgu maqsad va orzu-istiklari mujassam badiiy jonlanadi. Shu boisdan milliy kuy-ohanglarni qalban idrok eta olish tuyg‘usi ila jamiyatning millionlardan iborat ommalari o‘zini yagona bir xalq sifatida his etadi.

O‘zbek xalqi boy ma’naviy olamining ajralmas qismini asrlar qa’ridan kelayotgan milliy musiqiy meros namunalari tashkil etadi. Bu musiqiy meros asosan ikki qatlardan iborat bo‘lib, shulardan biri “xalq musiqasi” (yoki “musiqiy folklor”), yana biri esa “an’nanaviy kasbiy musiqa” (yoki “ustozona musiqa”) deb yuritiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, milliy musiqiy merosning ko‘rsatib o‘tilgan har ikkala qatlami bizning davrga qadar og‘zaki an’ana vositasida (nota yozuvlarisiz), ya’ni, og‘zaki ijod etish, og‘zaki ijob etish va og‘zaki o‘rganish (uzatish) o‘laroq yetib kelgan. Binobarin, ko‘p asrlar davomida xalqimiz boy ma’naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi bo‘lgan milliy musiqa bugungi kunda buyuk davlat bunyodkori bo‘lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig‘i bo‘lmog‘i ayni muddaodir.

Shu asnoda bugungi kunda azaliy musiqiy qadriyatlar mazmunini tashkil etayotgan bu musiqiy meros tarixiga bir nazar tashlaymiz. Hozirgi O‘zbekiston hududlarida qadimgi davrlardan boshlab musiqa san’ati shakllanib, rivoj topdi. Bu

haqda bizgacha yetib kelgan ko‘plab moddiy va nomoddiy madaniy meros namunalari guvohlik beradi. Bu borada Afrosiyob, Tuproqqal’ a, Dalvarzintepa, Ayritom kabi ko‘hna maskanlardan topilgan devoriy chizmalar, terrakota haykalchalari, shuningdek devorga bo‘rtma (barelyef va relyef) tarzida ishlangan urma, torli-chertma va puflama cholg‘ular tasviri muhim ashyoviy dalillardir. Bular orasida, ayniqsa, hozirda bizga ma’lum doira, nay, rubob va chang-arfaga o‘xshash cholg‘ular ko‘plab uchraydi. Ularning ijrochilari qatorida musiqa san’atining yuksak timsoli sifatida ayol sozandalar ulug‘ sanamlar o‘laroq e’zozlanganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, zardushtiyarning muqaddas hisoblangan “Avesto” kitobida ibodat got madhiyalari bilan birga xalq orasida udum bo‘lgan turfa aytimlar haqida ham muhim ma’lumotlar uchraydi.

Mintaqamizda islom dini keng yoyilgan davrlardan boshlab o‘zbek xalqining musiqa madaniyati yangi ma’no kasb etgan holda ravnaq topdi. Xususan, VII asrning so‘nggi choragidan boshlab islomiy qadriyatlar elimizning an’anaviy turmush tarzi, bayram, tantana, sayl, turli udum, urf-odat va marosimlari mazmuniga singib borishi asnosida xalq og‘zaki musiqa ijodiyotiga oid qo‘sish va kuylarida o‘zining badiiy ifodasini ham topdi. Bunda har bir marosim avvalida Alloh taoloning buyukligini madh etuvchi hamd va Muhammad (s.a.v.)ga bag‘ishlangan salovoti durudlar ifodasi bo‘lgan na’tlar bilan boshlash odat tusini oldi. Huddi shuningdek, mumtoz adabiyot (doston va b.) namunalarini ham hamd va na’tlar bilan boshlash an’anasi yuzaga kelgan edi. Ayni vaqtida kasbiy musiqa namunalari – maqom, ashula, katta ashula, suvora va b. – ravnaqi bilan birga musiqashunoslik ilmi ham jadal rivojlandi.

Qur’on tajvidi asosida O‘rta asr Sharq musulmon olamida yoqimli ovoz (yoqimli tovush) estetikasi qaror topdi. Shu tariqa musiqa san’atida ham sifat o‘zgarishlari yuzaga kelib, jumladan, o‘zbek mumtoz musiqasi islomiy qadriyatlar ustuvorligida kamolot sari yuksaldi.

Qadimdan juda oddiy ko‘rinishda bo‘lgan aksariyat cholg‘ular tarix silsilasida takomillashib borganiligi ham kuzatiladi. Bu borada, ayniqsa, xalqimiz islom dinini qabul qilgan vaqtdan e’tiboran sifat o‘zgarishlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Inchunin, doira shaklidagi qadimgi davr urma cholg‘ulari asosida harbiy yurish, ov jarayoni,

to‘y marosimi va xalq tantanalarida keng qo‘llanib kelingan nog‘ora, dovul, chindoul, childirma, daff (dap) kabi nisbatan takomillashgan zarbli cholg‘ular yuzaga keldi. Shuningdek, damli bo‘ylama (uzunasiga ushlab chalinadigan) sibiziqsimon cholg‘ular negizida qo‘schnay, surnay, va nihoyat, sufiylar orasida alohida e’zozli naysimon cholg‘ular rivoj topdi. Shuningdek, ikki torli, kosaxonasi o‘rtacha noksimon shakldagi ko‘hna torli-chertma cholg‘ular IX-X asrlardan boshlab hozirda bizga ma’lum bo‘lgan salobatli noksimon 4 torli ud cholg‘usi shakliga ega bo‘ldi. Ayni vaqtida, dastasida bog‘lanma pardalar mavjud torli-chertma cholg‘ular nota yozuvining o‘ziga xos ilk shakli sifatida xizmat qildi. Qolaversa, shunday cholg‘ular asosida dastlab Forobiy (X a.), keyingi asrlarda esa Safiuddin Urmaviy (XIII a.) va Komil Xorazmiy (XIX a.) o‘zlarining musiqa alifbosi, ud tabulaturasi, tanbur chizig‘i kabi o‘ziga xos nota yozuvlarini ixtiro qildilar.

Musiqa san’atining yangi mazmun-ma’no kasb etishi va uni teran falsafiy idrok etish borasida tasavvuf ta’limoti ham ahamiyatli bo‘lgan edi. Ittifoqo, so‘fiylikning ma’naviy komillik ila Mutlaq Go‘zallikka intilish g‘oyalari she’riyat va qariyb barcha san’at turlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Tabiiyki, tasavvufning barakotli ta’siridan musiqa san’ati ham chetda qolmagan edi. Aynan shu davrlarga kelib samo’ (qalban zavqli tinglash) amaliyoti keng yoyildi, musiqaga tasavvuf namoyandalari tomonidan nozik ta’riflar berildi.

Aslida, qalblarni hayajonga soluvchi go‘zal samo’ namunalari islom dinining insonni azizu-mukarram etishdek ma’naviy ta’limotida mavjuddir. Inson ruhini koinot sari yuksalishiga quvvat bag‘ishlovchi bunday mo‘jizaviy samo’ namunalari esa, eng avvalo, muqaddas Qur’oni Karim sura-oyatlarini mumtoz tajvid uslubida “o‘qish” jarayonida zuhur etadi. Zero, «Qur’on tajvidi (ammo uning o‘zi emas) va tanavvuli ham samo’ning tayanchi hisoblanadi» (Abdumannon Nazarov). Bu o‘rinda samo’ tushunchasi mazmunida go‘zal ovoz bilan jilolangan muayyan intizomli tovushlarning yuksaklikka maqsadli intilgan jonli harakat jarayoni va uni qalban zavqli qabul qilish (idroklash) holati anglashiladi. Bunday samo’ namunalari, ayniqsa, ishq ahli (so‘fiylar)ning ruhiy *vajd* holatiga yetishish yo‘lida amalga oshirgan zikri jaxriy (zikru samo’) jarayonlarida keng qo‘llanilib kelindi. Shu bilan

birga Ahmad Yassaviy ijodiy merosi hamda aziz-avliyolar hayoti bilan bog‘liq ayrim voqealarni o‘ziga xos ohangli o‘qish uslubiga asoslangan “Yassaviyxonlik”, “Ibrohim Adham qissasi”, kabi kitobxonlik an’analari shakllangan edi. Shu an’analarning davomi o‘laroq kelgusida “Navoiyxonlik”, “Bedilxonlik”, “Mashrabxonlik” kabi mazmunan kitobxonlikning yangi namunalari yuzaga keldi.

Ushbu asrlarda erishilgan ijobiy natijalar Amir Temur va Temuriylar davriga kelib yangi sifat bosqichiga yuksaldi. Zero, XIV-XV asrlarda musiqa madaniyatining har jihatdan rivojlanishi uchun zarur sharoit va omillar yaratilgan edi. Shu davrlarda ijod etilgan ilmiy, badiiy va mo‘jaz tasviriy (miniatyura) asarlar shundan guvohlik beradi. Ayni vaqtda Samarqand va Hirot shaharlarda tasavvufning komil inson ta’limoti bilan yo‘g‘rilgan “O‘n ikki maqom” tizimi shakllanib, ravnaq topdi.

## **1.2. XVI-XIX asrlar davomida Turkiston xonliklaridagi mahalliy musiqiy an’analar**

XVI—XVIII asrlarda tabiiy-ilmiy fanlar o‘zlarining avvalgi an’analarini yo‘qota boshladи, ularning rivoji borgan sari susayib bordi. 1593 yilda Amir Ahmad Roziyning «Haft iqlim» nomli geografik-biografik lug‘ati, deyarli shu yillarda Mutribiyning «Tazkirat ush-shuarо»siga ilova etilgan dunyo xaritasi vujudga keldi. Ayrim tarixiy ma’lumotlarda aytishicha bu davrlarda tibbiyat sohasida qator amaliy ishlar, turli tabiblar, ko‘z do‘xtirlari, singan suyaklarni tuzatuvchilar faol ish olib borgan (Sulton Ali degan tabib «Tabobat bo‘yicha qo‘llanma» yozib qoldirgan), yirik shaharlarda kasalxonalar mavjud bo‘lgan. Lekin XVIII asrlarga kelib tabiiy fanlarga e’tibor susayib, umumiyligi ijtimoiy, siyosiy tarqoqlik birinchi navbatda shu ilmlarga salbiy ta’sir ko‘rsatib, diniy dunyoqarashning ta’siri kuchaygan. Adabiyot, she’riyat bilan bog‘liq holda musiqashunoslik, musiqa ilmi rivojiga ham e’tibor berilgan. Buxoroda Mavlaviy Kavkabiy musiqa ilmi, maqomlar bo‘yicha risola yozgan.

Movarounnahr san’ati, ilm-fan, madaniyati bu asrlarda ham boshqa musulmon Sharqi, Eron, Turkiya, Koshg‘ar, Hindiston kabi mamlakatlar bilan yaqin aloqada bo‘ldi, o‘zaro ta’sirda rivoj topdi. Boshqa o‘lkalardan Movarounnahrga turli ziyoli, madaniyat arboblari kelib o‘z faoliyatini davom ettirganidek, Buxoro, Samarqand

kabi turli shaharlardan chiqqan olim, donishmand, san'at arboblari boshqa mamlakatlardagi madaniy oqimda ishtirok etdilar.

Movarounnahrda so'nggi asrlardagi taxt uchun kurashlar, parokandalik astasekin yagona davlat tarkibidan turli shaharlarning ajrab ketishi, mustaqil Xiva va Ko'qon xonliklarining tashkil topishi, ular o'rtasidagi urush-ziddiyatning avj olishi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yomon oqibatlarga olib kelish bilan bir-ga, madaniy-ma'naviy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi, uning rivojiga g'ov bo'ldi, orqaga ketuviga olib keldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi Turkiston tarixida iqgisodiy-siyosiy jihatdan o'zaro nizolar, urushlar, boshboshdoqlik, parokandalik aholining nihoyatda qashshoqlashgan, madaniy-ma'naviy jihatdan tushkunlikka uchragan davri edi. O'zaro ichki nizolarning kuchayib ketganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1740 yillar Buxoroni va Xivani bosib olib o'ziga qaram qildi. Buxoro taxtiga o'z odami Muhammad Hakim otaliqni o'tkazib qaytdi. Lekin Nodirshoh vafotidan so'ng (1747) Hakimxonning o'g'li Muhammad Rahim ashtarxoniyalar sulolasini umuman chetlatib, 1753 yili o'zini amir deb e'lon qildi. Shunday qilib, Buxoroda mang'it qabilasidan chiqqan sulola hukmronligi boshlandi.

O'zbek xoni Elbarsxon 1512 yili Xiva xonligini barpo etib, unga Xorazmning qator shahar, qishloqlari, turkman yerlari va Xurosonning shimoliy qismini qo'shib olgan edi. Lekin bu xonliqda uzlusiz o'zaro kurashlar, xonlikning turkmanlar, qoraqalpoqlar, Buxoro xonligi, Eron bilan urushlari davom ztganligi iqtisodiy-siyosiy ahvol, madaniy hayotning qashshoqlanishiga olib keldi. Abdullaxon II davrida Xorazm, Buxoro xonligi tomonidan bosib olindi. Abdullaxon II vafotidan so'ng Xiva xonligi yana mustaqilligini tiklab oldi. Shuningdek, 1598 yili Subxonqulixon yana Xorazmni Buxoro xonligiga qaram qiladi. Uzoq vaqt o'tmay Xiva yana mustaqil xonlikka aylandi. XVII asrda Xiva xonligi madaniyati tarixida eng yirik arbob sifatida ish ko'rgan xon Abulg'ozixonni ko'rsatib o'tish mumkin. U faqat yirik davlat arbobigina bo'lib qolmay, mashhur tarixchi va tabib ham edi. Abulg'ozixon Buxoro, Toshkent, Eron shaharlarida quvg'inda, bir necha bor qamoqda bo'lgan, nihoyat 1643 yili Orol o'zbeklari uni xon qilib ko'taradilar va 1645 yili Xiva taxtiga chiqadi. U

deyarli yigirma yillik (1645—1663) xonlik davrida markazlashgan davlat tuzishga, mamlakat rivojini ta'minlashga intildi, madaniyatga e'tibor berdi. 1663 yili taxtni o'g'li Anushaxonga topshirdi. Abulg'ozixon fan tarixida mashhur olim, Xorazm tarixnavisligining asoschisi sifatida nom qoldirdi. Uning qalamiga mansub «Shajarayi tarokima» («Turkmanlar tarixi») va «Shajarayi turk» («Turklar shajarasi») kabi asarlar Markaziy Osiyo tarixiga oid muhim manba hisoblanadi. Bu asarlar nemis, fransuz, rus tillariga tarjima etilgan va sharqshunos olimlar orasida ma'lumdir. XVIII asrning oxirlariga kelib Farg'ona butunlay Buxorodan mustaqil bo'lib ajrab chiqdi va Qo'qon xonligi vujudga keldi. Bu xonlikning asoschisi ming qabilasidan chiqqan Shohruxbiy bo'lib, u XVIII asr boshlarida Farg'onda mustaqil davlat barpo etadi. Bu davlat asta-sekin atrofdagi qishloq va shaharlarni bosib olish hisobiga kengaya boradi.

Norbo'tabiy (1769—1800) yillarda Qo'qon xonligidagi ziddiyatlarni tinchitib, o'z hokimiyatini mustahkamladi. Bu xonlik XIX asrning birinchi yarmida ancha rivoj topdi. U Toshkent va uning atrofidagi shaharlarni, janubiy Qozog'istonni bosib oldi, shuningdek, Farg'ona sharkidagi viloyatlar ham unga qaram bo'ldi, hatto Koshg'ar chegaralariga borib yetdi, Olimxon, Umarxon, Muhammad Ali, Sheralixon, Xudoyorxonlar davrida Qo'qon xonligida o'zaro keskin kurashlar davom etib turdi. Shu bilan birga Qo'qon xonligining Koshg'ar, Xitoy, Rossiya, Buxoro bilan savdomadaniy aloqalari rivojlandi. Shunday qilib, o'zaro urushlar vaqtı-vaqtı bilan ko'tarilib tursada, XVIII asrning oxiri XIX asrning boshiga kelib Turkistonda uch mustaqil davlat: Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Mazkur uch davlatda madaniyat, adabiyot, ilm-fan, san'at o'ziga xos ravishda rivojlandi. Qo'qon xonligida XIX asr boshlarida me'morchilik rivoj topdi, juda ko'p qurilish ishlari olib borildi, xususan Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Andijon kabi yirik shaharlarda turli binolar: madrasa, masjid, xonaqo, bozor, hammom kabilar barpo etildi, kanallar o'tkazildi, binolarni bezash ishlaridan keng foydalanildi, hunarmandchilik ravnaq topdi. Masalan: shu davrda madrasai Muhammad Yasovul, madrasai Rizqulbek, madrasai Oftob oyim, madrasai Mingoyim, madrasai Hakimxon to'ra, madrasai Xo'ja dodxoh, madrasai Haqquli mingboshi kabi madrasalarning o'zidan bir nechtasi qurildi. Qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Qo'qon qoyuzi

butun Markaziy Osiyo shaharlarida o‘zining sifati bilan nom qozondi. Kitob yozish va bezash ishlari, xattotlikka alohida e’tibor berildi, o‘tmish mashhur shoirlarning asarlari ko‘chirilib, maxsus rang va chizmalar bilan bezatildi. Lutfiy, Navoiy, Umarxonlarning devonlaridan iborat «Muhabbatnom» degan bir majmua maxsus, chiroyli qog‘ozga bezaklar bilan, go‘zal xatda ko‘chirilib xon tomonidan Turkiyaga sovg‘a qilib jo‘natilgan.

Qo‘qon xonligining siyosiy mavqeining oshishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivoji madaniy hayotda ijobjiy o‘zgarishlarga olib keldi.

Islom da’vati va go‘zallik estetikasi asosida ravnaq topgan fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar XVI-XIX asrlar davomida Turkiston xonliklaridagi mahalliy musiqiy an'analar bilan uyg‘unlashib, pirovardida Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent mahalliy musiqa uslublari qaror topdi. Shuningdek, mumtoz maqom san’atining rivojlanishi pirovardida XVIII asr o‘rtalarida Buxoro saroy madaniyatida Shashmaqom turkumi, XIX asrda esa Xiva saroyida Xorazm maqomlari, hamda Qo‘qon xonligida Toshkent va Farg‘ona shaharlari bo‘ylab yoyilgan maqom yo‘llari yuzaga keldi.

XX asrga kelib esa sho‘rolar tuzumi davrida olib borilgan musiqiy ta’lim-tarbiya sohasidagi mafkuraviy “rahnomalik” o‘lar oq xalqimizning asrlar davomida qalbiga jo bo‘lib kelgan kuy-ohang boyliklaridan bebahra,( holda, bo‘lib), umrboqiy azaliy qadriyatlaridan begonalashgan, binobarin, milliy (nasliy) o‘zligini anglamay qolgan,(unutayozgan,) yosh avlod vakillari voyaga yetdiki, pirovardida milliy madaniyatimiz uchun yot bo‘lgan salbiy holatlar ham yuzaga chiqqa boshlagan edi.

O‘zbekiston davlat Mustaqilligiga erishgach ko‘p sohalar qatori musiqa madaniyatida ham hayotbaxsh o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Bugungi kunda jonajon Vatanimizda musiqa san’atini keng ko‘lamda rivojlantirish va ijtimoiy-musiqiy madaniyatni yanada yuksaltirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi, yosh avlodga milliy va jahon mumtoz musiqasi asosida ta’lim-tarbiya berish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Bu borada “Respublikada musiqiy ta’limni, madaniyat va san’at o‘quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to‘g‘risida” (1996 yil, dekabr), hamda “Bolalar musiqa va san’at muktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning

faoliyatini yanada yaxshilash” (2008 yil, iyul), “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (17 noyabr 2017 y.) va “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida” (6 aprel, 2018 y.) e’lon qilingan Prezident farmoni va qarorlari benihoya muhim ahamiyat kasb etdi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasi o‘larоq tarixan qisqa davr mobaynida ko‘p asrlik xalqchil va mumtoz musiqa an’analarini o‘rganish, o‘zlashtirish va targ‘ib etishga qaratilgan qator e’tiborli ishlar amalga oshirildi. Inchunin, endilikda Vatanimizda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘plab umumta’lim maktablari hamda o‘rta va oliy maxsus ta’lim muassasalarining o‘quvchi va talabalari bu ajdodlar musiqasidan bahramand bo‘lish imkoniga ega bo‘ldilar. Shu jumladan, milliy musiqiy meros asosida ishlab chiqilgan “O‘zbek musiqasi tarixi”, “O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti”, ”O‘zbekiston musiqa san’ati ”, “Maqom asoslari” kabi qator o‘quv fanlari maxsus ta’lim tizimiga joriy etildi.

Ayni vaqtدا, o‘zbek musiqashunosligi turli ilmiy yo‘nalishlarda tadqiqot olib borish salohiyatiga ega bo‘lgan san’atshunoslikning alohida mustaqil fan sohasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Musiqa san’atimizning ilmiy idroki va in’ikosi bo‘lgan o‘zbek musiqashunosligi XX asrdan to hozirgi kunga qadar bosib o‘tgan tarixiy yo‘li davrida e’tiborga arzigelik ilmiy-amaliy ishlar ro‘yobga chiqdi, yangi, hayotbaxsh tamoyillar yuzaga keldi. Milliy musiqiy meros, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti, zamonaviy yo‘nalishlar va ijrochilik masalalari hamda muborak sanalarga doir turli miqyosda ilmiy-nazariy anjumanlar o‘tkazildi, ustuvor yo‘nalishli mavzularda bir qator tadqiqotlar bajarildi, ko‘plab monografiya, maxsus to‘plam va boshqa ilmiy va o‘quv adabiyotlari nashr yuzini ko‘rdi.

Binobarin, bugungi kun o‘zbek musiqashunosligi turli ilmiy yo‘nalishlarda tadqiqot olib borish salohiyatiga ega bo‘lgan sertarmoq fan sohasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda tarixiy va nazariy musiqashunoslik, maqomshunoslik, etnomusiqashunoslik, musikiy manbashunoslik, musikiy tanqidchilik va sotsiologiya kabi tarmoklar namoyon bo‘ladi.

### **1.3. Musiqa madaniyati va uning hayotdagi o‘rni.**

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga, urfodatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an’analarimizga bo‘lgan e’tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo‘nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq otobobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o‘tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tarixdan ma’lum, ma’naviyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan musiqiy madaniyatimiz, an’anaviy qo‘shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma’naviy ozuqa sifatida ehtirop etib kelingan. Xalq og‘ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo‘shiq va musiqa ularga hamroh bo‘lgan.<sup>1</sup> Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o‘zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma’naviyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an’anaviy qo‘shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy musiqa va qo‘shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan.

Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo‘qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo‘lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo‘lib qolaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san’ati milliy musiqa san’atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda

paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san’at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an’anaviy ruhdagi qo‘shiqlari o‘lmas meros bo‘lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo‘shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo‘lmish musiqiy san’at bilan shug‘ullanayotgan barcha mutaxassis va san’atkorlarga muhim vazifa qilib qo‘yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o‘zgarishlar paydo bo‘ldi. Prezidentimiz ta’kidlaganlariday, ma’naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an’ana va rasm- rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash singari juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi. «Xalqimizning kelajagi, - deb yozadi Islom Karimov, - eng avvalo, uning o‘ziga, ma’naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog‘liqdir.

Ma’naviylik va mahrifiylik xalqimizning ko‘p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o‘ziga xos xususiyati bo‘lib keldi». Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma’naviy jabhalarning barcha yo‘nalishlari o‘zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo‘ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma’naviy hayotdagi o‘ziga xos o‘rnini baholash, uning ta’sirchanlik kuchini mustaqillik mafkurasi tomon yo‘naltirish uning bosh mezoni ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko‘ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri- zikri ana shu tamoyillar yo‘liga yo‘naltirilgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Musiqiy madaniyat o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o‘zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o‘zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo‘q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg‘u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o‘zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo‘sib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o‘rin tutadi.

XIX asr oxirlariga kelib o‘zbek musiqiy madaniyatida o‘zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o‘lkasini Russiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog‘liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o‘rganmoq zarur bo‘ladi. Chunki bahzi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta’sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o‘ziga xos rivojlanish davri bo‘lganligini ham ehtirop etish zarur bo‘ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o‘lkamizda milliy musiqa san’atimizni ilmiy ravishda o‘rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta’sir etdi. Bu borada V.A. Uspenskiy, YE.YE. Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o‘tish zurur bo‘ladi. Ilyos Akbarov, Mutual Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg‘alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortopiano sozi, opera va balet, simfonik iじro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Natijada, o‘zbek xalq musiqalari, qo‘shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko‘rdi. So‘nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko‘rinishlarga to‘la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu holatlarga qaramay, o‘tgan davrlar mobaynida ilm fan, san’at, jumladan, musiqiy madaniyat sohasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini ehtirop etish zarur. Yaqqol misol sifatida musiqa ijodiyoti, ijrochiligi, musiqa ilmi, tahlimi singari sohalarni olish mumkin.

Shu o‘tgan davrlarning salbiy oqibatlari sifatida hayotimizning o‘ta siyosiyashtirilushi, milliy qadriyatlarimizni mensimaslik, uning toptalishiga yo‘l qo‘yilishi, xalqchil yo‘nalishlarga bepisandlik munosabatida bo‘lish, azaliy xalqaro madaniy aloqalar rivojlanishiga sunhiy to‘sıqlar qo‘yilishi kabilarni ko‘rsatish mumkin. Hozirgi zamon o‘zbek musiqa ijodiyoti serjabha va ko‘lami keng, usluban boy va rangbarang, rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida gavdalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an’analarga ega bo‘lgani holda, zamona zayli bilan yangidan-yangi yo‘nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda. Demakki, asrlar osha bizgacha yetib kelgan ardoqli navobaxsh

merosimiz qatori bir necha avlod ijodkorlarining ko‘rkam musiqiy an’analari madaniy-ma’naviy mulkimizga aylandi. Har qanday san’at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so‘nggi yuz yillik mobaynida O‘zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog‘lik murakkab va o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Xususan, 20-yillardan e’tiboran 10 kompozitorlikka xos ifoda vositalarining izchil joriy etila boshlanishi musiqiy madaniyatimizda musiqa ijodkorligining yangi tizimi barpo etilishidan dalolat berdi.

Tabiiyki, tez orada o‘zbek xalq ijodiyoti, an’anaviy bastakorlik hamda havaskorlik singari o‘zaro chambarchas bog‘liq qatlamlar bilan uzviy bog‘liq ravishda milliy qadriyatlarimizga, «noan’anaviy» kompozitorlik ijodkorligi muhim tarmoq sifatida qo‘shiladi. Umumbashariy madaniy taraqqiyotga mos ravishda mazkur jabha o‘lkamizda tarixan juda qisqa muddat ichida uzil-kesil shakllanib, samarali rivoj topganini alohida ehtirop etish lozim. G‘arbiy va Sharqi Ovrupa mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanibgina qolmay, o‘zgacha yaratuvchanlik qonun-qoidalarini o‘zlashtirish, uni o‘zbek xalq musiqasining boy imkoniyatlari bilan mohirona payvand qilish maqsadida ilg‘or kompozitorlarimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharq mintaqasi doirasida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldilar. Yangicha musiqiy uslubda noyob zamonaviy asar yaratish, jahon xalqlari musiqasi rivojlanishini hisobga olib, tobora yangidan - yangi ijodiy ufqlarni ochib berish bilan tavsiflanuvchi baynalminal jarayonga O‘zbekiston o‘z munosib ulushi bilan dadil kira oldi. Kasbiy ulg‘ayish bosqichlarini tezkorlik bilan o‘tab, har tomonlama yetuklik pallasiga ko‘tarilishi bilan «O‘zbek kompozitorlik maktabi» dunyo musiqa madaniyatida o‘ziga munosib o‘rinni egallahsga intildi. Asosan XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ana shunday ijodga moyillik darjasini ilgari ayricha holda bo‘lgan ikki toifadagi musiqiy tafakkur an’analarining o‘lkamizda uzviy mushtarakligiga erishilganligi bilan ham xarakterlanadi. Shu boisdan ko‘p ovozlik uslub ila bunyod etilgan turli janrlardagi badiiy jihatdan barkamol, mumtoz asarlar ma’naviy qadriyatlarimizning jahonshumul salohiyatini yanada oshirdi.

Musiqiy madaniyatimizning yangi yo‘nalishi bo‘lgan o‘zbek simfonik musiqasi 70- 80-yillarda peshqadam safga chiqib olganini eslab o‘taylik. Bu o‘rinda

respublikamizda, qo'shni va qator xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan nufuzli madaniy tadbirlar, konsert, ko'rik-tanlov hamda festivallarda katta muvaffaqiyat bilan ijro etilgan o'zbekona poemalar, syuitalar, uvertyuralar, fantaziyalar, cholg'u konsertlar va simfoniyalar xalqaro musiqa jamoatchiligi diqqat-e'tiborini qayta-qayta o'ziga jalgilgan. Bugungi kunda o'zbek musiqa san'ati nafaqat asl an'anaviy ko'rinishlarida, balki kompozitorlik yo'naliishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan olinmoqda. Bu ma'noda sof cholg'u musiqasi, xususan, uning ancha murakkab sanalmish simfonik ijodiyoti alohida e'tiborga molik. Endilikda respublikamiz kompozitorligi shunchaki xil musiqa janrlarida yozish va izlanish tajribalaridan iborat bo'lmay, balki noyob an'analariga, mumtoz namunalar xazinasiga ega sermahsul oqimdir. Uni turli yillarda xalqchil kuy ohanglar zaminida yaratilgan noyob va betakror asarlar tashkil etadi. Zero, har qanday andozada bastalangan musiqaning milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, ta'sirchanlik kabi fazilatlari hamisha qadrlidir. Yuksak kasb mahorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'hna milliy an'analarga tayanib yaratilgan asarlarning umri boqiyligini birgina o'zbek simfonik musiqasi misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Jumladan, 30-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan Aleksey Kozlovskiyning ovoz va simfonik orkestriga moslashtirilgan ehtirosli «Tanovar» poemasi, «Lola» syuitasi, Reyngolpd Gliyerning «Farg'ona bayrami» shodiyona uvertyurasi tinglovchilarga hamon olam-olam zavqu shavq bag'ishlab kelmoqda. Simfonik orkestr ishtirokida ijro etishga mo'ljallangan o'lmas kashfiyot darajasidagi asarlar orasida Mutual Burhonovning yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Alisher Navoiyga qasida»si, Muxtor Ashrafiy, Georgiy Mushelp, Sulaymon Yudakovlarning qator simfonik asarlari, Doni Zokirovning «Lirik poema»si, Boris Nadejdinining «Bolalarga» syuitasi, Ikrom Akbarovning «Shoir xotirasiga», «Epik poema»lari, «Samarqand hikoyalari» turkumi, Sayfi Jalilning «Samarqandnama» simfoniyasi, To'lqin 11 Qurbanovning simfonik kuylari, Mirsodiq Tojiyevning «Shoir sevgisi» poemasi va 19 ta muhtasham simfoniyalari, Mirxalil Mahmudovning 3 ta simfoniyasi, Nurilla Zokirov, Mustafo Bafoyev, Rustam Abdullayev, Habibullo Rahimov, Bahrullo Lutfullayev va boshqa ijodkorlarning yutuqlari musiqiy madaniyatimiz

ravnaqiga munosib hissa bo‘lib qo‘sildi. Zaminimizdagi musiqa san’atining rivoji uch ming yilga borib taqaladi. O‘tgan bu zalvorli davrlar mobaynida musiqiy madaniyatimiz juda ko‘p marta o‘zining uzoq rivojlanish davrini bosib o‘tdi va xalqimiz ma’naviy boyligining negizi sifatida ezgulik va taraqqiyot uchun xizmat qildi. Shuning uchun ham biz juda boy, rang-barang, ko‘lami keng, usluban xilma xil, qiymati chin ma’noda bebaho darajali ulug‘vor musiqiy merosga egamiz.

O‘rtalarda faqat mumtoz ijodkorlik qatlamida «O‘n ikki maqom»dek muhtasham tizim, uning negizida shakllanib bizgacha yetib kelgan Buxoro va Xorazm maqom turkumlari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari, an’anaviy ijrochilik va surnay yo‘llari, xalq bastakorlik ijodkorligi, musiqiy dostonchilik san’ati musiqiy madaniyatimizning sarchashmalari sifatida bahramand qilib kelmoqda. Milliy cholg‘ularimizning toifalari ko‘pligi, turfa yakka va jo‘rnavozlik ijro an’analaring o‘ziga xosligi bo‘yicha milliy musiqa san’atimizga dunyo uzra teng keladiganini topish qiyin. Sharq musiqa ilmining asoschisi deb butun jahonda tan olingan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy, buyuk allomalarimizdan Abu Ali ibn Sino, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zaynulobiddin Xusayniy, Kavkabiy Buxoriy, Darvish Ali Changiy va boshqalar sharqona jahonshumul ahamiyatga molik noyob nazariy va estetik qarashlarni ishlab chiqqan holda mumtoz musiqiy asarlarning ham muallifi sifatida keng tanilgandirlar. Ana shunday xalqchil va ustozona qatlamlar orqali bizgacha yetib kelgan musiqiy madaniyatimiz tufayli tarixan juda qisqa muddatlarda O‘zbekistonda yanada yangicha, ko‘p ovozli milliy kompozitorlik ijodiyoti uzil - kesil shakllandı, o‘z qiyofasiga ega bo‘ldi, jadal ravnaq topdi. Bunda xalq musiqamiz, ayniqsa, maqomchilik an’analari faqat hayotbaxshlikni tahminlabgina qolmay, balki mahsuldor zamin bo‘lib xizmat qildi.

Ma’lumki, ulug‘vor maqom san’ati milliy ma’naviy mulkimizning eng qimmatli va ardoqli xazinasidir. Uning asl namunalaridan necha-necha avlodlar bahramand bo‘lib kelishmoqda. Hatto keng ko‘lamli targ‘ibot uchun rasman taqiqlangan paytlarda ham maqomlarning mavqeい, amaliy-hayotiy mohiyati saqlanib qolaverdi. Xalqimizning yuksak ongi, didi, ruhiy talab va ehtiyojlariga bastakorlik

ijodiyoti, ustozona hofizlik va sozandalik ijrochiligi ma’naviy ozuqa berib kelgan. Shu bois bunday san’at ustalari elyurtimiz orasida hamisha qadrlanganlar va ehzozlanganlar. Buyuk istiqlol tufayli musiqiy madaniyatimiz eski siyosiy - mafkuraviy tazyiqlardan xalos bo’ldi. Shu bilan birga, u ko’hna mumtoz an’analarimizning to’la tiklanishiga, ayniqsa, yosh avlodlarni bilimdon, savodxon, ma’naviy barkamol darajada tarbiyalashga misli ko‘rilmagan imkoniyat yaratdi. Xususan, biz aynan mustaqillik davrida ko’hna maqom ijrochiligi va an’anaviy ijodkorligida yuzaga kelgan yangicha ijodiy salohiyatning tiklanishini kuzatishga muyassar bo‘lmoqdamiz. Diniy-falsafiy ashulalar masalasiga kelsak, bular, avvalo bizning tarixiy boyligimizdir. Kimgadir g‘ayri tabiiy tuyulsa ham, bu yo‘nalishga to‘siq bo‘lmaslik aslida ozodlik, erkinlik, yuksak madaniyatga xos chinakam demokratik tamoyillarning amaldagi yaqqol ifodasi bo‘lsa kerak. Chunki mumtoz sharq shehriyatida bitilgan ilohiy, tasavvufona mavzular o‘tmish musiqamizda o‘zining ohanrabo, ta’sirchan ifodasini topgan va qadrlangan. Bunday ashulalarning o‘z tinglovchilari, asosan, keksalar orasida shinavandalari, muxlislari bor.

Buni albatta, hisobga olish zarur bo‘ladi. Kezi kelganda shuni ham ehtirop etish kerakki, Ovro‘paga turdosh zamonaviy musiqa ijrochiligi bo‘yicha, jumladan, fortepiano, torli, damli va zarbli cholg‘ular, akademik uslubdagagi xonandalik ixtisosliklaridan ko‘plab iqtidorli yosh musiqachilarimiz voyaga yetmoqda. Ularning aksariyati respublika va chet mamlakatlarda nufuzli xalqaro 12 tanlovlarda ishtirok etishib, g‘olib va sovrindorlikni qo‘lga kiritishayotgani quvonarli holdir. Xulosa qilib aytganda, musiqiy madaniyatimizning xalq ma’naviy hayotidagi o‘rni beqiyosdir. Musiqiy madaniyat xalq ma’naviy dunyosining ajralmas qismi bo‘lib, uning ma’naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo‘lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o‘zining ma’naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi. Mustahkamlash uchun savollar 1. O‘zbek xalqining musiqa merosini qadim bilan bog‘liqligini qanday tushunasiz? 2. Musiqiy madaniyatimizning ma’naviy hayotidagi o‘rni qanday? 3. Musiqiy madaniyatimizning serqirraligi qanday tushuniladi? 4.

Musiqiy madaniyatimizdagi o‘zgarishlar qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi? 5. Hozirgi zamon musiqa ijodiyotiga qanday baho berasiz? 6. O‘zbek musiqa madaniyatining xalqaro miqiyosdagi ahamiyati qanday?

### **Nazorat savollari**

1. O‘zbek xalq musiqa merosi necha qatlamdan iborat?
2. Xalq musiqasi bizning davrga qadar qay tarzda yetib kelgan?
3. Ko‘hna maskanlardan topilgan devoriy chizmalar, terrakota haykalchalar qaysi hududlardan topilgan va ularda qanday cholg‘ular aks ettirilgan?

### **2-mavzu: Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, Xorazm maqomlari.**

#### **Reja:**

- 2.1. O‘zbek musiqasining eng qadimgi davrlari.
- 2.2. Birlamchi tuzilma sifatidagi ohanglar.
- 2.3. O‘zbek xalqining musiqa merosi tarixiga nazar.

**Tayanch so‘zlar:** *Musiqa, meros, folklor, tarix, ustozona, og‘zaki, kuyohanglar, ma’naviyat, asrlar, nota yozuvi, an’nanaviy, Afrosiyob, marosim, urf-odat.*

#### **2.1. O‘zbek musiqasining eng qadimgi davrlari.**

O‘zbek musiqasining eng qadimgi davrlaridan boshlangan tarixini o‘rganish, xususan, musiqiy meros namunalarining rivojlanish dinamikasini yoritib berish masalasi hozirgi musiqashunoslik fani oldida turgan eng murakkab vazifalardan biridir. Biroq bu borada yetarli dalil bo‘la oladigan birlamchi manbalarning yo‘qligi natijasida tadqiqot jarayonlari anchagina qiyin kechmoqda. Musiqiy manbashunoslik sohasi asosan arxeologik topilmalar ( terrakota haykalchalari, tosh va devoriy tasvirlar), xalq og‘zaki ijodi va ayrim yozma ma’lumotlarga tayangan holda faoliyat ko‘rsatib, bu yo‘nalishda ma’lum yutuqlarga erishdi. Bu borada atoqli maqomshunos olim Ishoq Rajabovning ilmiy merosi va erishgan natijalari zamonaviy o‘zbek musiqashunosligi uchun alohida qadrlidir. Zotan, allomaning samarali ilmiy

izlanishlari fan rivojiga barakali ta'sir ko'rsatdi, qimmatli ilmiy tadqiqotlari negizida maqomshunoslik va musiqiy manbashunoslik kabi fan tarmoqlariga asos solindi.

Xususan, olim Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan o'rta asrlarga oid arab imlosida bitilgan ko'plab musiqiy risolalarini yuqori malakali darajada sharhlab bergen ediki, pirovardida, maqomshunosligimiz an'anaviy mumtoz musiqaning tarixi, o'tmishdagi tizimlari va mohiyatini anglash borasida muhim manbalarga ega bo'ldi.

Manbashunoslikka hissa qo'shgan o'zbek olimlari qatorida D.Rashidova, A.Jumayev va A.Nazarovlarning ilmiy faoliyati e'tiborlidir. Jumladan, D.Rashidova Imomqulixon saroyi musiqachisi va musiqashunos olimi Darvish Ali Changiyning "Risolai musiqiy"sinи to'liq holda rus tiliga tarjima qilib, zarur izohlar bergen, A.Jumayev esa Ibn Sino, Najmiddin Kavkabiy ilmiy merosi ustida tadqiqotlar olib borgan.

Abdumannon Nazarov qomusiy allomalar – Abu Nasr Forobiyning «Kitabul-musika al-kabir», «Kitabul iyqa'at» va «Kitab fi ixsaul-iyqa'at», Ibn Sinoning «Kitabush-shifa», Safiuddin Urmaviyning «Kitabul-advar», Abu Bakr al-Buxoriy al-Kalobodiyning «Kitabu-ta'arruf li-mazhabit-tasavvuf», Umar Hayyomning «Risola (fil) musiqa» kabi ilmiy asarlarini serko'lam (tarjima, sharh, tadqiq) yoritishga muvaffaq bo'lgan.

Musiqiy manbashunoslikda ham amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar talaygina. O'z vaqtida I.R.Rajabov ilmiy mehnati bois asos solingan musiqiy manbashunoslik tarmog'i keyinchalik A.Nazarov, Z.Oripov, D.Rashidova, A.Jumayev va I.Dadajonovalarning ilmiy faoliyati o'laroq qimmatli manbalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Lekin ko'pgina ilmiy manbalar borasida amalga oshirilgan serko'lam ilmiy izlanishlar hosilasi hozirga qadar nashr yuzini ko'rmagani bois mutaxassislarning keng ommasiga noma'lum bo'lib qolmoqda. Shunday muhim ahamiyatga ega ilmiy ishlar qatorida, masalan, D.Rashidova tarjimasidagi Darvish Ali Changiyning "Tuhfatus surur" va A. Nazarov tarjimasidagi S.Urmaviyning "Kitabul-advar" risolalarini qayd etish mumkin. Qolaversa, Abdulqodir

Marog‘iyning «Maqasidul - alxan» va «Jami-ul - alxan» nomli shox asarlari ham hozirga qadar musiqashunoslik talablari darajasida o‘rganilmagan.

Shuningdek, musiqiy manbashunoslik erishgan ilmiy yutuqlar, asosan, o‘rta asrlar mumtoz musiqasi bilan bog‘liq. Biroq ijtimoiy musiqiy tafakkurning qadimgi davrlardagi darajasi hamda keyingi tadrijiy rivoji xususidagi tasavvurlarimiz mavhum bo‘lib qolmoqda. Endilikda, bu jarayonga bizgacha yetib kelgan xalq musiqasi va mumtoz musiqa namunalarini kengroq jalg etish, ularni musiqiy arxeologiya kesimida tadqiq etish vaqt keldi. Zero bu namunalarda jamlangan turli davr musiqa qatlamlarini, shu jumladan, qadimiylukka mansub musiqiy yodgorliklarni musiqshunoslik ilmi erishgan natijalar asosida bir qadar aniqlab olish imkonи mavjud.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, eng qadimiy davr musiqa (kuy) namunalari quyi oqim xususiyatiga ega bo‘lgan. “Birlamchi tuzilma” iborasi bilan tavsif etilgan bu toifa kuy-ohanglari odatda eng quyida joylashgan tayanch tovushga nisbatan ma’lum balandlikdan (tersiya, kvarta yoki kvinta) boshlanib, quyilikka (pastga) qarab harakat etadi, “sirg‘anadi”. Bunda dastlabki boshlang‘ich nuqta (tovush)dan turib quyi nuqta (tovush) sari to‘g‘ridan-to‘g‘ri (sodda), pog‘onama-pog‘ona harakat sodir bo‘lishi yoki harakat yo‘nalishi yondosh tovushlar vositasida “bezaklanib” pastga tushishi qayd etiladi.

Birlamchi tuzilmalarning shakllanishida tabiiy yig‘i nidolari ahamiyatli ko‘rinadi. Chunki ularning umumiyl kuy yo‘nalishida ma’lum o‘xshashliklar mavjud. Jumladan yig‘i xususiyatini o‘rgangan musiqashunos olimlar unga xos jixatlar qatorida g‘amnok ohanglarning badihaviylik tarzda erkin bayon etilishi hamda quyi sirg‘anma harakatlarga moyiligi kabi jihatlarni ta’kidlaydilar.

Birlamchi tuzilma sifatidagi ohanglar bizning davrga qadar turfa janr va shakllarda yetib kelgan bo‘lib, jumlaan, an’anaviy tarzda (muqim holda) ijro etib kelinayotgan marosim va bolalar xalq qo‘shiqlarida o‘z kuchini saqlab kelmoqda.

Musiqiy merosimizning turli janrlariga mansub ushbu namunalarda birlamchi tuzilma xususiyatlarini payqab olish qiyin emas – ularnin barchasida kuy-ohanglari yuqori tovushdan boshlanib, eng quyida joylashgan tayanch pardaga qarab

harakatlanadi. Bunda ayniqsa “Yor-yor” va “Ramazon” aytimlariga yig‘i (uning kuy shaklidagi ifodasi)ga xos “quyi tersiya” ohanglari asos bo‘lganligi sezilib turadi .

## **2.2. Birlamchi tuzilma sifatidagi ohanglar**

Birlamchi tuzilma xususiyatlariningyuqorida ko‘rib o‘tilgan nikoh to‘yi “Yor-yor”, diniy marosim (Ramazon) a bolalar (“Yomg‘ir yog‘aloq”) xalq qo‘shiqlarida namoyon bo‘lishi ayni paytda musiqashunos olimlarimizning (V.M.Belyayev, F.M.Karomatov, I.Rajabov) ushbu janrlarning kelib chiqish ildizlari juda qadimiy ekanligi xususidagi fikrlari asosli ekanligini ko‘rsatadi. Alalxusus: “Musiqa sharqshunosligi sohasida samarali ish olib borgan atoqli olim V.M.Belyayevning fikricha, hozirgi kunda o‘zbek va tojiklarda musiqa asarlarining dastlabki shakllari marosim qo‘shiqlari, bolalar qo‘shiqlari, onalar allasi, yig‘ilar vositasi bilan bizgacha yetib kelgan. Bu fikr haqiqatga yaqindir.hatto onalar allalari, dostonchi-shoirlar aytadigan qator doston va qo‘shiqlar, yor-yor qo‘shiqlari o‘zining sodda intonatsiyasi, ritmik xususiyatlari jihatidan musiqa madaniyatining dastlabki davrlariga mansubdir” – deb yozgan edi san’atshunoslik fanlari doktori I.Rajabov.

Quyi oqim (birlamchi tuzilma) kuy-ohanglari xalqimiz musiqiy tafakkurida uzoq vaqt hukm surgan va shu asosda keyinchalik kuy-ohanglarining o‘zga shakllari ham yuzaga kelgan ko‘rinadi .

Musiqiy merosning qadimiy qatlamlari qatorida angemitonika xususiyatli (ya’ni tarkibida yarim tonli tovushlar nisbati bo‘lmagan) ohanglar e’tiborimizni o‘ziga tortadi. Odatda, ushbu toifaga talluqli ohanglarning quyi oqimga moyil kam sonli (2, 3, 4) tovushlari munosabatida so‘zdosh ohanglarga xos (yondosh sekunda va kvarta) intervallar yetakchi o‘rin tutadi. Shu boisdan ularning tarixiy kelib chiqishini ijtimoiy musiqiy tafakkurda kvarta intervali muhim ifoda ohangi sifatida shakllangan ko‘hna davrga (P.P.Sokalskiy ta’biri bilan aytganda “kvarta davriga”) mansub, deb qarash mumkin.

Uning dastlabki shakllari xalq musiqasining uzoq o‘tmishga oid aytim namunalarida (“Sust xotin”, “Arg‘amchi” va b.), shu jumladan, xalq ijodiyotining ko‘hna qatlamlaridan hisoblangan bolalar qo‘shiqlari kuy negizida kuzatiladi.

Darhaqiqat, angemitonika sifatiga ega ohang tuzilmalarida qadimiylikka ishora etuvchi qator alomatlar namoyon bo‘ladi. Jumladan, lad asosi bizning bu xususdagi bugungi tasavvurimizga muvofiq kelmaydi.

Shuni aytish kerakki, angemitonika sifatli ohanglar xalq musiqiy taakkuri rivojlna borgani sari yangi jihatlar bilan to‘ldirilgan. Jumladan, quyi sakrama ohanglar orasida yondosh tovushlar paydi bo‘lgan, markaziy tayanch parda xususiyati asta sekin quyi tayanch tamoyiliga bo‘ysungan va h.k. lekin shunday bo‘lishiga qaramay bu toifa ohanglar butkul yo‘q bo‘lib ketmagan, balki u yoki bu qo‘shiqning dastlabki ohang asosi (ko‘hna qatlami) sifatida saqlanib qolgan. Chunki aslida eng qadimiy va, odatda eng oddiy tuzilmalar (lad) parda-ohang kesimida hayot kechirishga nihoyatda moslashgan bo‘ladi.

Qadimiy pardalardan bizga meros qolgan yana bir muhim musiqiy yodgorlikni “darakchi” ohanglar toifasi tashkil etadi. Bu ohanglar kvarta intervali ijtimoiy ongda axborot yetkazish (signal uzatish) sadolari sifatida qaror topgan davrlarga taalluqlidir. Xususan, “darakchi ohanglar” o‘tmishda turli vaziyatlarda (masalan, harbiy maqsadda, havf-xatardan ogoh etish, bayram kunlari, tantanalarni daraklash va h.k.) qo‘llanilgan.

Darakchi ohanglarning musiqiy sifati belgisi ohang sakramalarining keng namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bunda sakramalarning tayanch nuqtasi markazda joylashgan bo‘lib, ana shu pardadan turib ham quyi, ham yuqori yo‘nalishlarda ohang harakatlari yuzaga keladi.

Bu kabi ohang sakrashlari natijasida hajmi kichik yettilik (septima) yoki sof sakkizlik (oktava) oralig‘ini qamrab oluvchi parda uyushmali hosl bo‘ladi. Biroq goho bu pardalarning tarkibida ayrim bosqichlar qo‘llanilmaydi va buning natijasida tarkibiy noto‘liq tovushqator zinapoyalari yuzaga keladi. Bunga “Arg‘amchi”, “Laylak keldi”, “Sust xotin” kabi qo‘shiqlar yaqqol misoldir. Binobarin, darakchi ohanglar qo‘llanilgan aytim namunalari tahlil qilinganda ana shu parda xususiyatlariga ham e’tibor berish tavsiya etiladi.

Shu ta’kidlash joizki, ushbu maqola doirasida muxtasar ko‘rib o‘tilgan ko‘hna ohang tuzilmalari bizga turli tarixiy davrlardan “xabar” beruvchi musiqiy

yodgorliklar bo‘lishi bilan birga musiqiy merosning yangi namunalari ijod etilishi jarayoniga ham faol jalg etib kelingan. Taniqli E.Alekseyev ta’biri bilan aytganda: “ilk xalq aytimlari rivojlangan kuyli aytim shakllaridan “xitoy devori” bilan to‘sib qo‘yilmagan. Aksincha, ularning tarixiy rivoji tovushlarning o‘zaro muqim bog‘langan tonal komplekslari shakllanishiga intilgandir”.

Birlamchi tuzilma va darakchi ohanglarning xalq ijodiyoti bilan bir qatorda mumtoz musiqa namunalarida ham qo‘llanib kelinayotganligi bu fikrni bir qadar bo‘lsa-da tasdiqlaydi deb e’tirof etami.

### **2.3. O‘zbek xalqining musiqa merosi tarixiga nazar.**

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san’atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog‘lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmuddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz o‘zlarining risolalarida ijrochilik san’ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san’atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma’lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnama»da ham hofizlik va san’atkorlikning qoidalariga bag‘ishlangan alohida bob o‘rin olgan.

Zaminimizda o‘tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnay, qonunga, nayga o‘xhash sozlar, toshlarga o‘yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o‘lkamizda ijrochilik san’ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo‘lmish Maqom, Mo‘g‘om, Dastgox, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og‘zaki ravishda o‘tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san’atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O‘rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o‘n ikki (Duvozdax) maqom mavjud bo‘lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Buzalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Rohaviy»,

«Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofqand», «Buzurg». 13 Yana bir tarixiy manbara murojaat qiladigan bo‘lsak, ulug‘ olim Mirzo Ulug‘bek Tarag‘ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah maqom» (o‘n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog‘iy, Xoja Sayfidin Abdulmo‘min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so‘zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo‘lg‘on: «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Rohoh», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy». Yana ushbu risolada ulug‘ bobomiz Ulug‘bekning o‘zi tanbur va nog‘orani juda yaxshi chalgaligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig‘» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta’kidlab o‘tadi.

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo‘llari sayqallangan ko‘rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo‘llari ham o‘z o‘rnini topganligi ehtimoldan xoli emas. Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti maqom)i: «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o‘zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo‘lsa, Farg‘onaning «Chor maqom»i (To‘rt maqom), «Dugoh Husayniy»ning yettita yo‘li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo‘li, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo‘li hamda «Bayot» yo‘llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan. Xorazm maqomlarida ham yuqorida ta’kidlangan olti maqom ijrosini alohida uslubiy va o‘ziga xos yo‘nalishini kuzatish mumkin.

Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo‘lidagi «Panjgoh» maqomi kiritilgan. Shuning uchun avloddan avlodga o‘tib kelgan bebafo musiqiy boyligi sanalmish Buxoro, Xorazm va Farg‘ona, Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug‘ neemat sifatida ardoqlanadi. Xalq san’atining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov: «Milliy musiqa san’atimiz bamisoli bir daraxt bo‘lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg‘onadir», - deb tahriflagan ekanlar. Ustozning bu so‘zlarida

katta ma’no yotadi. Musiqiy ijrochiligidan yana bir yo‘nalishi dostonchilik san’ati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida juda rivojlangan bo‘lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi.

Tarixiy manbalarga murojat etadigan bo‘lsak musiqiy madaniyatimiz uzoq tarix bilan bog‘langanligini guvohi bo‘lamiz. Bunga qadimshunoslar tomonidan topilgan ashyoviy dalillar tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar suratlari, miniatura ko‘rinishidagi shohlar saroylaridagi bazmlarda sozandalar tasviri, musiqiy ijrochiligidan sadolari asrlar osha bizga yetib kelganligidan dalolat beradi. IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo musiqiy madaniyatida o‘zgarishlar davri bo‘lganligi manbalarda ko‘rsatib o‘tiladi. Lekin X-XII asrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari va ularning ijodiy faoliyatları haqida juda kam ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ustoz musiqashunos olimlarning yozma manbalariga asoslanib bahzilari ustida to‘xtab o‘tishni lozim topdik.

VI-VII asrlarda yashab ijod etgan O‘rta-Osiyolik Faxlobod Borbad xaqida ma’lumotlarga qaraganda musiqashunoslik, bastakorlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo‘q san’atkor bo‘lganligi ehtirop etiladi. Afsonaviy ijrochilik mahoratiga ega bo‘lganligi haqida yozgan ustoz musiqashunos olim Ar-roziy Borbadning buyuk ijrochilik mahorati bilan birgalikda musiqiy sozlarning ham yaratuvchisi bo‘lganligini aytib o‘tadi. Borbad yaratgan musiqa asbobi X-XII asrlarda Xuroson va Turonda keng tarqalganligini va uning 4 torli bo‘lganligini yozadi. Qadimiy qo‘lyozmalarda X-XII asrlarda ijod qilgan Abubakr Rubobiy, Bunasr, Buamir va changchi Lukoriy va boshqa sozanda va hofizlarning nomlari eslab o‘tiladi. 14 IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o‘z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo‘lganligi, ayniqsa «Bo‘yi juyi muliyon» shehrini ushshoq kuyida aytilgani qadimgi qo‘lyozmalarda ko‘rsatilgan.

Adabiyotshunos olim N.Mallayev qadimiy ko‘lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, kus nog‘ora, qo‘biz, tabl, tanburok, zir, nay, chag‘ona, shaypur, surnay, karnay, arg‘unan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chaladigan cholg‘u asboblari o‘lkamizda keng tarqalganini va o‘n ikki maqom taraqqiy topib takomillashganini ko‘rsatib o‘tgan. O‘sha davrning buyuk olimi Mahmud

Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otiy turk» asarida qadimiy turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodi va qo‘shiqlari, bayram va marosimlaridagi mehnat qo‘shiqlari, qaxramonlik qo‘shiqlari haqida namunalar berilgan bo‘lib, o‘sha zamonda qo‘shiqchilik janri rivoj topganini ko‘rsatadi. X-XII asr musiqa va ashula san’atiga doir bayon etilgan noyob ma’lumotlar Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u biling» asarida ham uchraydi. X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug‘ kashfiyotchisi Abu Nasr Al Forobi (873-950) bo‘lib, uning musiqa sohasida yaratgan asarlari asosida ovro‘pa olimlari ham qator asarlar yaratganlar. Farobi o‘z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga fiziologik asoslarini ishlash ustida ijod qildi va «Qonun», «G‘ijjak» kabi yangi musiqiy sozlarni kashf etdi. Uning musiqa sohasidagi nazariy asarlaridan «Kitab ul musiqa alkabir» («Katta musiqa kitobi»), «Kalom fakultet-il musiqi» («Musiqa haqida so‘z»), «Kitob fi ixsoal ibkoh» (kuylar tasnifi haqida kitob»), «Kitob fi-n naqra muzofa ilal ibqoh» (Ritmga qo‘shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitob») kitoblari ma’lum. Akademik Muzaffar Xayrullayevning «Forobi» asarida uning musiqa ijodi haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Forobi Turkistonning Farob (O‘tror) shahrida tug‘ilgan bo‘lib, uning otasi Muhammad Tarxon turkiy qabilalardan edi. Avval O‘trorda, o‘qib, so‘ngra Bog‘dodga borib unda falsafa, tabiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shug‘ullanadi. Qadimgi Yunon foylasuflaridan Aflatun (Platon), Arastu (Aristo-telp) larning dunyo qarashlarini chuqur o‘rganib, ularning tahlimotlarini qaytadan ishlab chiqdi. Bu esa unga Aristotel-dan keyin «Ustod soniy» (Ikkinchı ustod) nomini beradi. U o‘sha davrning eng o‘tkir sozandasi, bastakori, O‘rta Osiyoda va Yaqin Sharqda musiqa madaniyatining yirik arbobi sifatida tanildi. Forobi o‘sha davr ijrochilik san’atida ham benihoya katta shuhrat qozondi. Uning musiqa yo‘nalishidagi nazariy asarlari kelajakda O‘rta Osiyo xalqlari musiqa fani taraqqiyotiga asos bo‘ldi va shu bilan birga dunyo musiqa fani rivojiga ham katta hissa bo‘lib qo‘shildi. Yana bir ulug‘ alloma Abu-Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa nazariyasi bilan shug‘ullangan bo‘lib, 1931 yilda Maxmud al Xavfning Berlinda nashr etilgan Ibn Sinoning musiqa ijodiga bag‘ishlangan kitobida Abu-Ali Ibn Sinoni katta musiqa nazariyachisi va uning musiqa asboblari ham kashf etgani to‘g‘risida ma’lumot beradi. Yana shu kitobda

ulug‘ olimning musiqa haqidagi «Kitob un najot» asarining arabchadan nemischaga tarjimasi berilgan.

Abu Ali Inb Sino meditsina, falsafa, musiqa sohasida «Alqonun fit-tib» («Tib qonun»), «Kitob ul shifo» («Shifo kitobi»), «Donishnama», «Risola fial musiqiy sayr mo fi al shifo» («Musiqa to‘g‘risida» «Shifo»da berilgandan boshqa risola») kabi qator asarlarni yozdi. Ibn Sinoning musiqaga doir mulohazalari «Kitob ush shifo» asariga alohida bir qism qilib kiritilgan. Yuqoridagi asarlarda Ibn Sino musiqanining estetik ahamiyati va ta’sir kuchiga e’tibor berib, ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa vositasi bilan shifolash usullarini o‘z amaliyotida joriy qiladi. Bu yana o‘sha davrda musiqa san’atining yuksaklikka erishganini ham ko‘rsatadi. Abu Ali Ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, otasi Abdulloh asli Balxlik davlatmand va madaniyatli kishi bo‘lib, o‘g‘lini yoshligidan qobiliyati, istehdodini, zehnini ko‘ra bilgan holda uning o‘qishiga katta e’tibor beradi.

Ibn Sino Buxoroda yashagan davrida Somoniylarning boy kutubxonasidan foydalanadi va Yunon ki- 15 toblarini tinmay qiroat qiladi. 999 yilda Qoraxoniylar tomonidan Somoniylar davlati qulatilgach, Urganchga kelib Xorazm olimlari qatoridan joy oladi. Keyinchalik Mahmud G‘aznaviy tazyiqi ostida ko‘p shaharlarni kezib 1037 yilda Hamodonda vafot etadi. X asrda yashab ijod qilgan Muhammad Ibn Al Xorazmiy musiqa haqida asar yozib, o‘zining «Mafotix ul ulum» deb atalgan qomusiy asariga asosiy boblardan qilib qo‘shtan. Xorazmliklar qadimdan musiqa va raqs hamda qiziqchilik shaydosi bo‘lganliklariga Alisher Navoiy ham shohidlik beradi. U o‘zining «Sabhai sayyor» dostonida bir musiqashunosni Xorazmdan keltirib gapga solganligini quyidagi misralarda ifodalaydi. Chun duo qildi, dedi farzona, Ki dey o‘z ko‘rgonimdan afsona, Menki tushmish buyon chuzor menga, Mulk Xorazm erur diyor menga, San’atim onda soz cholmoq ishi. Qilmoyin men kabi ishimni kishi, «Ilm advor» fan musiqiy Mendin ul, ilm bo‘ldi taxqiqiy.

Shundan ko‘rinadiki, qadimgi zamonlardan beri musiqiy san’at dunyosida Xorazm yuksak o‘rinda bo‘lgan. XI-asrda dunyoga kelgan «Qobusnama» asarining 36-bobi ham musiqa san’atiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda kitob muallifi Kaykovusning cholg‘uchi va hofizlarga qanday kuy tanlash va qachon, qayerda ijro

etish hamda san'atkor odobi va madaniyatlari to‘g‘risidagi nasihatlari, o‘sha davrda musiqiy san’atning taraqqiyoti yuksak darajada ko‘tarilganligidan dalolat beradi. XII asrdan boshlab Al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sino musiqa nazariyalari zamirida mahalliy tillarda musiqa fani haqida qator asarlar maydonga kela boshladi. Xorazmlik olim Ar-Roziiy o‘zining XII -asrda yozgan «Jomehul -ulum» qomusining bir bo‘limini musiqa faniga bag‘ishlagan. XIII - asrda Muhammad Ibn Mahsud ash- Sherziy (1236-1310) «Dar ilmiy musiqiy», Sayfutdin Abdul Mo‘hmin al Urmaviy (1294 yilda vafot etgan) ning «Risolatun Sharafiya» kabi asarlari ham musiqaga bag‘ishlangan. Musiqa ilmi bilan o‘rta asr olimi Muhammad al Amuliy ham shug‘ullangan Zamonamizning atoqli musiqashunos olimi san’atshunoslik doktori Ishoq Rajabov (1927-1982) XIII- asrda maydonga kelgan al-Urmaviyning «Risolatun Sharfiya», Ash-Sherziyning «Dar ilmiy musiqiy» asarlariga ilova qilingan va ud sozi uchun yozilgan qadimiy musiqa notalarini shartli belgilar bilan hozirgi zamon notasiga o‘girishda tajribalar o‘tkazdi.

Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bu tadqiqotda XIII-asrda notaga olingan qadimiy musiqa tuzilishini hozirgi zamon o‘zbek kuylariga juda yaqinligi aniqlangan. Tarix zarvaraqlariga nazar solganimizda ulug‘ bobomiz Amir Temur davrida ham madaniyat va san’at rivojlanganligini guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa Abdulqodir Marog‘iyning Shom davlatidan olib kelib saroy musiqachilarining rahbari etib tayinlanganligi ham uning musiqa san’atiga ixlosmand bo‘lganligidan dalolat beradi. XVII- asr musiqa tarixchisi Darvish Alining ma’lumotiga qaraganda Xoja Abdulqodir Marog‘iy isfaxonlik bo‘lib, o‘sha davr Sharqining buyuk musiqa olimi, bastakor va nazariyotchisi edi. U Samarqandga kelgach, saroy teatri va musiqasiga rahbarlik qildi. Samarqandda o‘z maktabini yaratdi, ko‘plab shogirdlar tayyorladi va musiqiy taraqqiyotga katta hissa qo‘shdi. Uning qalamiga mansub «Zubdatul advor», «Maqosidul ilhon» nomli kitoblar yozilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, Darvish Ali yana «Miatayin» nomli musiqa to‘plami yaratgani haqida ma’lumot beradi. 16 Amir Temur o‘z tuzuklarida o‘ninchи toifa hunar-san’at egalaridir.Ularning davlat xonaga keltirib o‘rdada o‘rinlar belgilangan, deb tahriflaydi.

Yozma manbalarda yana shu davrning yirik bastakor sozandalaridan Sayfitdin Nayi va Qutbi Nayi, Said Yusuf (qo‘buz), Darvish bek kabi musiqa sohasida mashxur

bo‘lgan san’atkorlar qalamga olinadi. Mavarounnahr madaniyati va san’ati ayniqsa Ulug‘bek (1394-1449) zamonasida yuksaklikka ko‘tarildi. Professor Abdurauf Fitrat Ulug‘bek davrida Samarqandda ijod qilgan Darvish Axmadiy Qonuniy, Sulton Ahmad Nayi, musiqiy risola yozgan qorako‘llik Hisoriy, Xorazmlik Abu Vafo, musiqashunos olim mavlono Sohib Balhiy, Shahrisabzlik bastakor Abul Baraka, mashhur sozanda Navoiyning muallimi Xo‘ja Yusuf Burxon, Navoiyning tog‘asi Muhammad ali G‘aribiylar kabi o‘sha zamonning mashhur san’atkorlarini qalamga olib o‘tadi.

Mashhur musiqashunos Hofiz Darvish Alining qalamiga mansub «Tuhfatus surur» asarida ayttilishicha Ulug‘bek Mirzoning o‘zi ham musiqiy olimlardan sanalgan. «Muhit at tavorih» kitobida uni bastakor sifatida «Bulujiy», «Shodiyona» - (bu bizgacha yetib kelgan), «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuli Bahri» kabi yirik musiqa asarlari yaratgani ko‘rsatiladi. Ma’lumotlarda shahar san’atkorlari ichida yallachi ayollar va raqqosalar ham bo‘lganligi aytib o‘tiladi. Ulug‘bek vafotidan so‘ng san’atdagি rivojlanish davri Hirota ko‘chdi. Buning bevosita rahbarligida ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy turdi, podshoh va shoir Husayn Boyqaro homiylik qildi.

Navoiy butun Mavarounnahr, Xuroson san’at va adabiyot, madaniyat ahlining sarboni bo‘lib yangi taraqqiyot pog‘onasiga olib chiqdi. Shu davr ichida o‘zbek xalqining musiqa madaniyati yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Buyuk musiqa ustozlari eng iste’dodli talabalarni o‘z tarbiyasiga oldi. Yangi kuylar, qo‘shiqlar, musiqa nazariyasiga oid asarlar maydonga keldi, talantli sozandalar, bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Ustozi va do‘sti buyuk shoir Abdurahmon Jomiy ham bu borada qalam tebratib «Risolal musiqiy» asarini yozdi. Bu asarda o‘zbek xalqining qadimiy o‘n ikki maqomi haqida qimmatli ma’lumotlar berildi. Yana bir zamondosh olim Zaynobuddin Al Xusayniy «Qonuni ilmi va amali musiqiy» nomli musiqiy darslik yozib, uni Navoiyga bag‘ishladi. Nuritdin Marg‘iloniyning «Maqsadul advor» («Musiqa ilmini maqsadi») risolasi ham maydonga keldi. Navoiy faqat san’atkorlarning homiysi bo‘libgina qolmay, u musiqa olimi va bastakori ham bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur uning bir qator musiqa asarlari yaratganini,

jumladan «Naqshi» (ashula)lari, «Peshrav» (musiqa)lari borligini «Boburnoma» asarida hikoya qiladi. O‘zlarining taxalluslari ham «Navo» ga bog‘langanliklari zamirida musiqaga yaqindan oshno bo‘lganliklarini ko‘rsatadi!. Navoiy «Mahbubul-qulub» asarining ikkinchi mutrib (ashulachi), mug‘anniy (sozanda) faslida mutrib va mug‘anniylar ijrolarini ta’sirchanligi va tarbiyaviy ahamiyati haqida so‘z yuritadi va nay, g‘ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qo‘buz, qonun, chag‘ona, kabi musiqa asboblarini fazilatlarini ham tahriflaydi.

«Mezonul avzon» asarida Navoiy tuyuq changi, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnoma, mustahzod kabi xalq qo‘shiqlarining 8 turi, ularning vazn xususiyatlari haqida ma’lumotlar beradi. «Hamsatul-mutahayyirin» asarida esa Navoiyning musiqa nazariyasiga katta e’tibor bergani namoyon bo‘ladi. Bu asarda Mavlono Ali O‘ohning tengi yo‘q sozanda, nazariyotchi ekanini va unga bir nazariy darslik yozishni topshirganini aytadi. Bundan tashqari ustod Qulmuhammad, Xo‘ja Shahobiddin, Abdullomarvaridiy, mavlono Binoiy kabi musiqashunoslarning musiqaga oid asarlar yozganlarini ko‘rsatib o‘tadi. Navoiy «Xolati Pahlavon Muhammad» asarini o‘z davrining buyuk bastakori, o‘n ikki maqomning takomillashuvida katta hissa qo‘shgan Pahlavon Muhammadning musiqa ijodiga bag‘ishladi.

O‘sha davr musiqa madaniyati haqida Zahriddin Muhammad Bobur ham qimmatli ma’lumotlar bergen. Uning yozishicha ustodlar Qulmuhammad, Abdullo Marvoridiy, Xusayn Udiy, Darvishbek, Yusuf o‘g‘loqi (qo‘biz), G‘ulom Shodi, Shayxi nayi, Shayx quli (g‘ijjak)lar Navoiyning yordami va g‘amxo‘rligi tufayli shuhrat topganlar. Zayniddin 17 Vosify o‘zining «Badoyehul vaqeh» asarida Navoiy zamonasida xalq san’atini katta rivoj topgani to‘g‘risida yozib, Hasan Nayi, Ahmad G‘ijjakiy, Ali Kuchak Tanburiy, Hasan Boloboniy, Mirzo Bayram, G‘iyosiddin kabi sozanda va bastakorlarni nomlarini keltiradi. Zayniddin Vosifiyning ma’lumotlariga qaraganda Hirot Safaviylar tomonidan ishg‘ol qilinganda besh yuzga yaqin san’at ahli Movarounnahrga ko‘chish qilganligi, bular orasida Qosim Ali qonuniy, ashulachi va sozanda ayol (tug‘anniya) Chaqarxonim, Said Ahmad G‘ijjakiy, Muhibi Ali Boloboniy, Hasan Udi, Husan Udi, Xusayn Kuchak nayi, Hofiz Marxonanda,

raqqoslardan Maqsud Ali kabilar borligi aytib o‘tiladi. Professor Abdurauf Fitrat ham XV-asrda Movarounnahr va Hirotda ijod qilgan. «Ishrat» ismli cholg‘u sozini chaladigan ustod Abulqosim va Husayn Boyqaroning musiqiy muallimi, andijonlik mavlono Yusuf Badiyi, (Husayn Boyqaro ham musiqa bilan shug‘ullanganligi shundan ko‘rinadi), tanburga bir sim qo‘shimcha qilib ijro etgan.

Mahmud Shayboniy, Abduqodir Marg‘iloniy, Habibulloiy changi, Muhamramiy changchi, Ali Shunqar, Mehtar Shamsiddin nog‘orachi, Mehtar Imom nog‘orachi, Alijon g‘ijjakiylar kabi o‘sha zamonning musiqiy ustozlari haqida ma’lumot beradi. XIV asr oxiri XV asrda Farg‘ona, Toshkent, Buxoro, Kesh va Xeva kabi Movarounnahrning boshqa viloyat va shaharlarida ham madaniy hayot, jumladan musiqiy madaniyat rivoj topdi. Farg‘ona hukmdori Umarshayx (Boburning otasi) o‘z poytaxti bo‘lmish Andijonga san’at ahlini yig‘ishga harakat qilgan. O‘sha davr san’at ravnaqi haqida «Boburnoma»da maplumotlar beriladi. Bobur o‘sha davr Andijon musiqiy muhitining ustozlaridan Xo‘ja Yusufni, Vosidiy esa Toshkentlik bastakor, sozanda Shoh Husaynni eslab o‘tadilar. XVI-XII asr musiqiy san’atning taraqqiyotiga nazar solsak, o‘rtadagi bir qancha uzilishlardan so‘ng, oldinga siljishlar ro‘y bergenini guvohi bo‘lamiz. XVI-asrning yirik shoiri va musiqashunos olimi Najmitdin Kavkabiy (1576 yilda vafot etgan) rahbarligida o‘n ikki maqom yanada mukammalashdi.

Darvish Alining hikoya qilishicha, Hirotda tahsil ko‘rgan mavlono Najmitdin Kavkabiy Ubaydulloxon tomonidan Buxoroga oldirib kelingan va bu yerda o‘z maktabini yaratib, o‘zbek musiqasi takomili ustida ish olib borgan. U Xo‘ja Muhammad Mavlono Rizo Samarqandiy, Xo‘ja Hasan Nisoriy, Mavlono Hasan Kavkabiy, Boqi jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlagan. Kavkabiy «Risolai musiqiy» asarini yaratib musiqa nazariyasi faniga katta hissa qo‘shgan. XVI asr oxiri XVII asrda Shayboniylar hukmdorligi davrida Buxoroga turli yerlardan san’atkorlarni olib kelib to‘plash davom ettiriladi. Ubaydulloxon (o‘zi shoir sifatida devon qoldirgan) Hirotni bosib olganda mashhur Hofiz Axiy Garaviyni Buxoroga oldirib keladi va Garaviy Buxoroda maqom ijrochilari maktabini tashkil qiladi.

Darvish Alining shohidlik berishicha Axiy Garaviy maktabida Xo‘ja Hamza Toshkandiy, Xo‘ja Bobo changiy, Darvish Mahmudiy Andijoniy, Hofizi Ushshoqiy kabi Movarounnahrning turli joylaridan kelgan hofizlar tarbiyalanganlar. XVII - asrning yirik sozandası, musiqa tarixchisi va nazariyotchilaridan biri Darvish Ali Changi bo‘ldi. U 12 bo‘limdan iborat «Risolaiy musiqi» asarini yaratdi. Bu asar o‘sha davr musiqa tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda maqomlar, maqomlarning sho‘pbalari, usullariga va musiqa nazariyasiga keng to‘xtaydi. Darvish Ali risolasiga turli davrlarda yashagan sozandalar haqida va o‘sha zamon musiqa asboblari tanbur, chang, nay, qo‘shnay, qonun, ud, barbad, rubob, qo‘buz, rud, g‘ijjak, ishrat, kungura, dutor, setor, surnay, bolobon, nog‘ora, karnay, doira kabi sozlar to‘g‘risida keng ma’lumot beradi. Bu davrda yana noma’lum mualliflar tomonidan «Risolatun fiilmil musiqiy», «Prisolai karamiya» kabi musiqa nazariyasiga oid asarlar ham yoziladi.

XVII-asrning ikkinchi yarmiga kelib musiqa san’ati yana tushkunlikka tushadi. Movarounnahrning uch xonlik va amirlikka bo‘linib ketilishi sezilarli ta’sirini ko‘rsatadi. Buning natijasida madaniy-musiqiy hayotda ajralishlar ro‘y beradi. Shunga 18 qaramasdan Xiva xonligida, Buxoro amirligida, Qo‘qon xonligidagi musiqiy san’at muhiti o‘z holicha davom etdi va birmuncha muvaffaqiyatlarga ham erishildi. O‘tmishda nota yozuvi bo‘limganligi sababli og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan mavjud xalq mumtoz kuy va qo‘shiqlari endilikda notaga olingan bo‘lib, bu xayrli ishni V.A. Uspenskiy, YE.YE. Romanovskaya, I.A. Akbarov, M. Yusupov, akademik Yunus Rajabiy singari allomalar amalga oshirdilar. Bu borada, ayniqsa, ustoz Yunus Rajabiyning xizmatlari beqiyosdir.

Natijada «O‘zbek xalq muzikasi», «Shashmaqom», «Xorazm maqomlari», «Gulyori Shaxnoz» singari ko‘p jildli qator musiqiy to‘plamlar dunyoga keldi va xalqimizning chinakam ma’naviy boyligiga aylandi. Ushbu to‘plamlarda maqomlarni va xalq an’anaviy qo‘shiqlarini nasr va mushkulot, aytim va chertim yo‘llarini ustoz hofizlar va mohir sozandalar ajoyib sayqallar berib ijro etishib kelmoqdalar. Yana shuni aytish joizki, xalqimizning ulkan musiqa merosini, folklor san’atini ilmiy tahlil qilib, uni xalqqa yetkazish borasida musiqashunos olimlarimizning ham xizmatlari

katta bo‘lib, o‘zlarining kitob va monografiyalarida, qo‘llanma, darsliklarida, maqola va chiqishlarida ilmiy nuqtai nazar bilan asoslab bermoqdalar.

Bu borada Fayzulla Karomatov, Ilyos Akbarov, Isxoq Rajabov, To‘xtasin G‘ofurbekov, Rustambek Abdullayev, Abdumannon Nazarov, Oqilxon Ibrohimov, Otanazar Matyoqubov, Ravshan Yunusov singari taniqli musiqashunoslarimizning mehnatlari beqiyosdir. O‘lkamizda musiqiy merosimizning ajralmas qismi bo‘lmish hofizlik azaldan muqaddas sanalgan. Islom olamida muqaddas kitobimiz bo‘lmish «Qurhon» oyatlarini dilga jo qilib, uning zeri - zabarlari bilan yoddan ijro etgan allomalarni «Hofizi Qurhon» deb yuritganlar. «Hofiz» arabcha so‘z bo‘lib, «yodda saqlamoq» ma’nosini anglatadi. Hofiz - Ollohning 99 ismlaridan biri deb ham tahriflanadi. Mumtoz hofizlarimiz islomiy bilimlardan hamda badiiy shehriyatdan xabardor bo‘lganlar. Shuning uchun ham ular ijro etgan qo‘shiqlar nihoyat ta’sirchan bo‘lib, tinglovchilarni o‘zlariga rom eta olgan.

Mumtoz shoirlarimizning beqiyos ma’noga ega bo‘lgan g‘azallarini kuyga solib, ijro etgan qo‘shiqlari uchun «Hofiz» degan nomga musharraf bo‘lishlari ham qandaydir ramziy ma’no kasb etishi tabiiydir. Bu o‘rinda Majzubi Namangoniying quyidagi satrlari ibratlidir: Dema tanbur nolasin qo‘l tashlaganda tordin Bilki kelmish bu tarona san’ati Jabbordin. Shundan ko‘rinadiki, musiqa inson jismiga jon bilan kirganligini, bunda ilohiy qudrat borligini islom ulamolari ham ehtirop etishgan.

Ulug‘ alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy «Tarixi Muhammadiy» kitoblarida shahodat berishlaricha, payg‘ambarimiz Rasululloh (S.A.V.) Makkadan Madinaga hijrat qilib shaharga kirishlarida yosh joriya qizlar childirmalar chalishib, quyidagi qo‘shiq va alyorlarni aytishgan ekan: To‘lin oy chiqdi bizlarga Vido tog‘ini ustidin, Kerakdur shukrini aytmoq, bu dunyo boricha bizdin, Kelibsiz, xush kelibsiz, ey yubormish tangrini nuri Qabul etmak erur bizdin, xudo amri kelur sizdin. Bani najor ahlining yosh qizlari bo‘lurmiz, Muhammadning kelganin baxtimiz deb bilurmiz. Xush keldingiz bizga siz, qadamingiz muborak, Oyoq bosgan izingiz ko‘zga surma qilurmiz. 19 Shundan ko‘rinadiki, qo‘shik, alyor, lapar aytish Payg‘ambarimiz (S.A.V.) davridan bizga meros bo‘lib qolgan.

O‘tmishdan maqom va an’anaviy mumtoz qo‘shiqlarning dunyoga kelishida va ijro etilishida barcha davrlarda yashagan xalq bastakorlari va hofizlarining ijodlari davr bilan hamohang bo‘lgan. Bunga mashhur bastakor va ijrochilar Borbad Marvaziy, Abu Xafz Sug‘diy, Abu Bakr Rubobiy, Abul Abbas Baxtiyor, Abdulqodir Marog‘iy, Darvishali Changiy, Paxlavon Muhammad singari bobokalonlarimizning ijodlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham musiqa san’ati katta o‘rin tutgan. Quyida shoirning «Hofiz» radifli shehridan misol keltiriladi: Chekti bulbul kibi ming lahz ila doston Hofiz, Yo‘q aningdek yana bu davrda xushxon Hofiz.

Hofiz etgan kibi xalq lutfi oni Qurhonda, Bo‘ldik oning dog‘i har holida Qurhon Hofiz. Sendadir nahmayi Dovud ila inhofi Masih, Bordurur yo‘q esa davron farovon Hofiz. Ey Navoiy, dema laxniga nedin bo‘lding sayd, Xalq saydiga koni o‘yla xush ilhom Hofiz. G‘azal satrlarida Navoiyning hofiz ahliga bo‘lgan chuqur hurmat-ehtiromi, xonanda san’atini ulug‘lash, xushxon hofizlarning sifatlari ifodalanadi. Bolaligidan cholg‘uchi bo‘lgan Dovud payg‘ambar musiqa san’atining piri hisoblanadi. Shu sababdan ushbu g‘azalda «Nahmayi Dovud» iborasi qo‘llanilgan.

O‘zbek xalq musiqasining janrlariga asoslanib yaratilgan asarlarni ijo etuvchilar qadimdan turlicha nomlangan: xonanda, hofiz, ashulachi, qo‘shiqchi, yallachi, katta ashulachi, laparchi, talqinchi, maqomxon, savtxon, baxshi, shoir, zokir, mug‘anniy, mutrib, yirovchi, go‘yanda singarilar. Bu ijrochilar bir necha guruhga bo‘linadilar, chunonchi, maqom ijrochilariga maqomxon, hofiz, xonanda, savtxon deyilsa, doston, musiqa ijrochilariga baxshi, shoir, dostonchi, yirovchi deyilgan.

Xalq orasida keng tarqalgan janr ijrochilari - yallachi, laparchi, ashulachi, qo‘shiqchi singari nomlar bilan atalib kelingan. Shu o‘rinda aytish kerakki, barcha maqom ijrolari va mashhur qo‘shiqlar turli davrlarda qaysidir bastakor tomonidan yaratilgan. Bu ijrolar xalqona bo‘lganligi sababli xalq orasiga singib ketgan va xalqning ma’naviy boyligiga aylangan. Shu bois bizning davrimizda ham yaratilgan an’anaviy qo‘shiqlarimizning mashhurlari bastakorlar tomonidan yaratilib, xalq orasida mashhur bo‘lib ketishining sababi ham shundadir. Masalan, Yunus Rajabiyning «Ne navo», «Kuygay», To‘xtasin Jalilovning «Kokiling», «O‘ynasin»,

Komiljon Jabborovning «Etmasmidim», Imomjon Ikromovning «So‘lim», Saidjon Kalonovnig «Ey sarvi ravon», Doni Zokirovning «Ey sabo», Orifxon Hatamovning «Xoh inon, xoh inonma», Rahmatjon Tursunovning «G‘amzasin» singari yuzlab qo‘shiqlar bunga misoldir.

An’anaviy qo‘sinq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o‘lkamizda bu muqaddas san’atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo‘lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdulg‘ani, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir. 20 O‘tmishda nota rivojlanmagan bo‘lib, Ovrupa musiqa terminlari o‘rnida hofizlarimiz ovoz maromiga qarab «Gulligi», «Binnigi», «Shikami», «Xonaqohiy» deb atalmish nafas olish, chiqarish va ijro yo‘llaridan foydalanishgan.

O‘sha davr hofizlarining ovozlari o‘ktam, baquvvat bo‘lganligi sababli ular ko‘proq «Shikami» yo‘lida ijro etganlar. Bu yo‘lda ijro etish g‘oyatda murakkab bo‘lib, shinavandalar tomonidan juda qadrlangan. Chunki hofiz tovushini ichkaridan tejamkorlik bilan qorin bo‘shlig‘idan chiqarib qo‘sinq aytadi. Shuning uchun ham «Shikami» yo‘li chuqur nafas olishga asoslanishi, tiniqligi hamda jarangdorligi bilan «Gulligi», «Binnigi» kabi ashula yo‘llaridan farq qiladi. Ustoz hofizlar o‘z ijrochilik mahoratlarini oshirish uchun aks-sado beruvchi maxsus gumbazli binolarda mashg‘ulot o‘tkazganlar, shu tariqa ovozlariga sayqal berishgan. «Shikami» yo‘lidan farq qiluvchi «Xonaqohiy» yo‘li bo‘lib, unda hofiz qo‘sinq so‘zlarini aniq talaffuz etib, tinglovchiga g‘azal mazmunini ifodali qilib yetkazgan.

Ustoz hofizlarimiz dasturlaridan har xil marosimlarda ijro etiladigan qo‘shiqlar ham o‘rin olgan. Masalan, Sodirxon hofiz qo‘shiqlarni sozsiz, ikki kaftini qulog‘iga qo‘ygan holda, alamlı «Yakka faryod» tarzida, «Xonaqohiy» yo‘lida ijro etib kelgan. O‘z ashulalarini yil fasllari va hatto, kunning ma’lum paytlariga ko‘ra tanlab aytgan. Bahor tonglarida - «Amin nasrulloyi», «Qiyiq», «Qora tong»ni, peshindan keyin «Gulyori Shahnoz»ni, kechqurun «Sarparda», «Rok baland», «Dilxiroy» va boshqalarni kuylagan. Bundan tashqari, ustoz hofizlarimiz qo‘sinq ijro etish bilan

birga maqomlarni o‘zlashtirib, betakror muallif sifatida maqomlarni yangi sho‘hbalar bilan boyitganlar.

Masalan, maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov «Shashmaqom» ning mushkulot qismlarini tartibga solgan, ayrim maqom sho‘hbalarini kengaytirgan, rivojlantirgan va qo‘sishimcha qismlar bastalagan. Jumladan, ulardan biri «Savti Jaloliy» deb ataladi. Marg‘ilonlik Madali hofiz esa «Abdurahmonbegi», «Qalandar», «Tanova» kabi ijro yo‘llarini yangi talqinlari bilan to‘ldirib, san’atimiz xazinasini yangi ijrolar bilan boyitdi. Shu tariqa umrboqiy maqomlarimizga ustoz hofizlarimiz ijrosida qo‘sishimcha jilo berilib, yanada to‘ldirilib ijro etib kelinmoqda. Bizning davrimizga kelib ham bu xayrli ishlar davom etdi. Masalan, mashhur hofiz va bastakor Fattohxon Mamadaliyev «Nasrulloyi» musiqa yo‘llariga so‘z solib, uning talqinchasini, uforisini, soqinomasini yaratdi. «Miskin»ning beshta yo‘lini, «Chorgoh» ning beshta yo‘lini, «Umrzoqpolvon ushshoqi»ning soqinamolarini qo‘shib, ushshoqlarning qadimiyligi ijrolarini tikladi. «Buzruk»ning surnay yo‘llarini talqin qildi.

Izlanishlar natijasida xalq an’anaviy ijrochiligi bir necha ijro yo‘llari bilan boyidi, ulardan biri turkum sifatida «Savti Fattohxon» nomi bilan ijrochilarimiz va olimlarimiz tomonidan tan olindi. XX asrning 20-30-yillariga kelib an’anaviy qo‘sishchiligidan ikkinchi bir avlod kirib keldiki, bu ulug‘ hofizlarimiz san’atimiz xazinasini o‘zlarining mumtoz qo‘shiqlari bilan boyitdilar.

Ularning muborak nomlarini hurmat va ehtirom bilan zikr etib o‘tish joizdir. Xorazm vohasidan Matpano ota Xudoyberganov, Kurji ota Avazmatov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Jumaniyoz Xayitboyev, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Buxoro, Samarqanddan Ota G‘iyos Abdulg‘ani, Mixail Tolmasov, qori Karomat, Tillaboy hofiz, Usta Shodi, Tojixon hofiz, Boruh Zerkiev, Toshkentdan Shorahim Shoumarov, Inog‘om va Ilhom hofizlar, Abdulqahhor, Sultonxon, Yunus Rajabiy, Boboxon va Akmalxon So‘fixonovlar, Xo‘janddan To‘raxo‘ja hofiz, Abduqayum hofiz, Karimjon hofizlar, Farg‘ona vodiysidan Hamroqul qori To‘raqulov, Erka qori Karimov, Bolta hofiz Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Haydarali Hikmatov, Xolqora hofiz, Berkinboy Fayziyev, Abdulla Fayzullayev, Jo‘raxon Sultonov, Mahmurjon Uzoqov, Ortiqxo‘ja

Imomxo‘jayev, Akbar Haydarov, Boborahim Mirzayev, Ashurali hofiz, Umrzoq 21 polvon Saydaliyev singari hofizlar o‘zlaridan oldin ijro qilib o‘tgan ustozlarning qo‘sinqchilik san’atini davom ettirishib, an’anaviy ijrochiligidan har birlari birbiriga o‘xshamagan ajoyib ijro uslublarini ham yaratdilar, shu bilan birga, o‘zları bastalagan asarlari bilan qo‘sinqchiligidan xazinasini boyitdilar. Bu borada, ayniqsa, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Matpano Xudoyberganov, Xojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Jo‘raxon Sultonov, Yunus Rajabiy ijodlari bunga misol bo‘la oladi. Sodirxon hofiz ijro etgan «Ushshoqi Sodirxon» nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. Xoji Abdulaziz bastalagan «Guluzorim» qo‘sing‘i, Jo‘raxon Sultonov bastalagan va o‘zi ijro etgan «Guluzorim qani», «Naylayin» qo‘sinqlari an’anaviy merosimiz qatori musiqiy xazinamizdan mustahkam o‘rin oldi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, qo‘sinqchilik san’atimiz rivojiga o‘zbek bastakorlari va sozandalari o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘sib kelmoqdalar. Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Muhammadjon Mirzayev, Muxtorjon Murtazoyev, Faxriddin Sodiqov, Abduhoshim Ismoilov singari yuzlab bastakorlar yaratgan qo‘sinq va kuylar xalq mulkiga aylanib qoldi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, an’anaviy qo‘sinqchilik, yalla, lapar, o‘lan ijrochiligi rivojiga ayol hofizalarimizning qo‘singan hissalari ham beqiyosdir.

Ayollar ishtirokida o‘tadigan yig‘in va majlislarda ayol hofizalar xizmat qilishgan. Mashhur yozuvchimiz Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida Qo‘qon xoni Xudoyorxon saroyidagi hofizalar to‘g‘risida aniq ma’lumot beradi. Nusrat hofiz, Misqol hofiz, Tosh hofiz, Marg‘ilonlik Zeboxon, Botirboshi xola, Tillo hofiz, Tojixon hofiz, Xon og‘acha, Misoq og‘acha, Ulug‘ o‘yunchi, Rajabxon hofizlarning nomlari zikr etiladi. Keyinchalik ham bu an’analar davom ettirilib, Lutfixon aya, Adolatxon aya, Hadyaxon Hamdamova, Halimaxon Nosirova, Tamaraxonim, Saodat Qobulova, Zaynab Polvonova, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Rahimaxon Mazohidova, Habibaxon Oxunova, Olmaxon Hayitova singari zabardast hofizalarimizning qo‘sinqchilik bo‘stonidagi xizmatlari beqiyosdir.

Ularning an’analarini hozirda yetuk, talantli hofizalar davom ettirmoqdalar. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib an’anaviy qo‘sinqchiligidan guldstasi navbatdagi

avlod qo‘liga o‘tdi. Orif hoji Alimaxsumov, Ochilxon Otaxonov, Orifxon Hotamov, Muhammadjon Karimov, Odiljon Yusupov, Fattohxon Mamadaliyev, Tavakkal Qodirov, Murodjon Ahmedov, Ro‘zimat Jumaniyozov, Rasulqori Mamadaliyev, Faxriddin Umarov, Tolibjon Badinov, Quvondiq Iskandarov, Eson Lutfullayev, Alijon Hasanov, Nehmatjon Qulabdullayev, Otajon Xudoyshukurov, Bobomurod Hamdamov, Tojiddin Murodov, Kamoliddin Rahimov singari mashhur hofizlar shular jumlasidandir. Buyuk istiqlolimiz sharofati bilan an’anaviy qo‘shiqchilik san’atimiz rivoj topmoqda.

Ulug‘ ustozlar Jo‘raxon Sultonov, Mahmurjon Uzoqov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov, Tavakkal Qodirov, Otajon Xudoyshukurov nomlari bilan o‘tkazilayotgan respublika va vohalar yosh xonandalari ko‘rik tanlovlari, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa anjumanida hofiz va xonandalarimizning erishayotgan muvaffaqiyatlari, «O‘zbekiston - vatanim manim» respublika qo‘shiqlar ko‘rik tanlovining an’anaviy tarzda o‘tkazilishi qo‘shiqchilik san’atimizning kelajak avlod qo‘liga topshirishda ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ustozlar an’anasini davom ettirishib, qator san’atkorlar muvaffaqiyatlari ijod qilmoqdalar. Ular ustozlar mакtabiga suyangan holda o‘zlariga xos ijob yo‘llari va uslublari bilan qo‘shiqchilik xazinasiga sezilarli hissa qo‘shmoqdalar. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida ehzozlab, sayqal berishib, katta ijodiy

### **Nazorat savollari**

1. Musiqashunoslikda o‘zbek xalq musiqa ijodiyotini o‘rganuvchi fan tarmog‘i qanday ataladi?
2. Dastlabki etnomusiqashunoslik kurtaklari qaysi folklorist olimning asarida namoyon bo‘ladi?
3. XX asr etnomusiqashunos olimlari kimlar edi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimova A.N. Traditsionniy muzikalniy yazik uzbekskogo, karakalpaskogo i uygurskogo narodov. – Tashkent, 2008. – 161 s.
2. Azimova A.N. Zvukovoy mir karakalpakov. – Tashkent, 2008. – 64 s.
3. Yanov-Yanovskaya N.S. Uzbekskaya muzika i XX vek: raboti raznix let. – Tashkent, 2007. – 272 s.
4. Muradova Z. Detskaya pesnya v tvorchestve kompozitorov Uzbekistana / Otv. red.: d. isk. O.A. Ibragimov – Tashkent: Baktriapress, 2015. – 240 s.
5. Galitskaya S.P., Plaxova A.Y. Monodiya: problemi teorii / Nauch. red.: d.isk., prof. M.N. Drojjina. – M.: Academia, 2013. – 320 s.
6. Alekseyev E. Problemi formirovaniya lada. M., 1976. S.25.
7. Alekseyev E. Rannefolklornoye intonirovaniye. M., 1986.
8. Ibrohimov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi (Metodik tavsiyalar), Toshkent, 1994.
9. Oripov Z. Ustoz va olim. // “Rajabiyxonlik” ilmiy-amaliy anjuman materiallari.–T., 1993.
10. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.–T.,O‘zadabiynashr, 1963.
11. Rajabov I. Maqom asoslari.– T.: 1992.
12. Rajabov I. Maqomlar. “San”at”, 2006.
- 13.Ibrohimov O. Maqomshunos alloma // Rajabov I. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O. Ibrohimov).–T., San”at, 2006.
- 14.Yunusov R. “Maqom asoslari” fani musiqa ta’limi tizimida// “Rajabiyxonlik” ilmiy-amaliy anjuman materiallari.–T., 1993.
- 15.Ibrohimov O. Maqomdon olim Ishoq Rajabov// Musiqa ijodiyoti masalalari. –T., “Qatortol-Kamolot”, 1997.
16. Ibragimov O. Fergano-Toshkentskiye makomi.– T. : 2006.
- 17.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (12 jildd). II-jild. – T., 2001. –44-45-b.
- 18.Yunusov R. Ishoq Rajabov – XX asr maqom allomasi. // San’atshunoslik masalalari.–T., 1998
- 19.Yunusov R. O‘zbek maqomlari. – T.: O’zbekiston NMIU, 2018.
20. O‘zbek folklori ocherklari. I-jild.– T., «Fan», 1988
- 21.Xorazm maqomlari.(notaga oluvchi M. Yusupov. ). –T., 1986.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

#### IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

**1-amaliy mashg'ulot. Maqom musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari bilan ajralib turishi masalalari.**

**Shashmaqom.**

**Ishdan maqsad:** Maqom musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari bilan ajralib turishi masalalari. Shashmaqomning o‘zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida tutgan o‘rnini ,ularning vazifalari, nazariyasi va amaliyotining xususiyatlarini tahlil etish. “Shashmaqom” tushunchasini tahliliy o‘rganish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Tinglovchilar tomonidan kichik guruxlarga bo‘linib, ular har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollardan javob olish jarayonida og‘zaki tahlil orqali sharhlab berishi lozim.

**Ishni bajarish uchun namuna**

O‘qituvchi talabalarni 4-guruhgaga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘sishimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materiallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

**2-amaliy mashg‘ulot. O‘zbek xalq musiqasi lokal uslublari (Buxoro-Samarqand, Farg‘ona-Toshkent, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpoq)ga xos asarlarni tinglash (4 soat).**

**Ishdan maqsad:** O‘zbek xalq musiqasi lokal uslublari o‘rganish va ularning nazariyasi va amaliyotining xususiyatlarini tahlil etish, jamoaviy tarzda tanqidiy tahlil qilish shart-sharoitini yaratish.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Tinglovchilarning ta’lim va tarbiya uyg‘unligi, Sharqona ta’lim va tarbiyaning xususiyatlari borasidagi qarashlar hamda xorij tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy yondoshuvlar ahamiyatiga doir o‘zaro fikr-mulohaza almashishlari berilgan namuna bo‘yicha FSMU texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

Tinglovchilar guruhlarga bo‘linib, mavzuni tahlil qiladilar. Ishning so‘ngida guruh tomonidan yakuniy xulosalar o‘qib eshittiriladi. Prezentatsiya davomida guruh ishtirokchilarning barchasi faol qatnashishlari talab etiladi.

Ekranda FSMU metodining umumiylaysi tafsifi va u asosda hal qilinadigan mavzu aks etib turadi.

Bular quyidagi tartibda:

**3-amaliy mashg‘ulot: Shashmaqom cholg‘u va nasr yo‘llaridan tinglash.  
Maqom musiqa, she’riyat va raqs san’atlarini mujassamlashtiruvchi  
mushtarak badiiy durdonalar (4 soat).**

**Ishdan maqsad:** Shashmaqom cholg‘u va nasr uslublari o‘rganish, Maqom musiqa, she’riyat va raqs san’atlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy durdonalar xususiyatlarini tahlil etish, jamoaviy tarzda tanqidiy tahlil qilish shart-sharoitini yaratish.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Tinglovchilarning maqom musiqa, she’riyat va raqs san’atlarini xususiyatlari borasidagi qarashlar hamda xorij tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy yondoshuvlar ahamiyatiga doir o‘zaro fikr-mulohaza almashishlari berilgan namuna bo‘yicha FSMU texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

Tinglovchilar guruhlarga bo‘linib, mavzuni tahlil qiladilar. Ishning so‘ngida guruh tomonidan yakuniy xulosalar o‘qib eshittiriladi. Prezentatsiya davomida guruh ishtirokchilarning barchasi faol qatnashishlari talab etiladi.

#### **4-amaliy mashg‘ulot: Shashmaqom cholg‘u va nasr yo‘llaridan tinglash.**

**Maqom musiqa, she’riyat va raqs san’atlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy durdonalar (2 soat).**

**Ishdan maqsad:** O‘zbek xalq musiqasi lokal uslublari o‘rganish va ularning nazariyasi va amaliyotining xususiyatlarini tahlil etish, jamoaviy tarzda tanqidiy tahlil qilish shart-sharoitini yaratish.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Tinglovchilarning ta’lim va tarbiya uyg‘unligi, Sharqona ta’lim va tarbiyaning xususiyatlari borasidagi qarashlar hamda xorij tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy yondoshuvlar ahamiyatiga doir o‘zaro fikrmulohaza almashishlari berilgan namuna bo‘yicha FSMU texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

Tinglovchilar guruhlarga bo‘linib, mavzuni tahlil qiladilar. Ishning so‘ngida guruh tomonidan yakuniy xulosalar o‘qib eshittiriladi. Prezentatsiya davomida guruh ishtirokchilarning barchasi faol qatnashishlari talab etiladi.

Ekranda FSMU metodining umumiyl tavsifi va u asosda hal qilinadigan mavzu aks etib turadi.

#### **5-amaliy mashg‘ulot: Xorazm maqomlaridan tinglash (2 soat).**

**Ishdan maqsad:** Xorazm maqomlaridan tinglash modul asosida darslarni tashkil etish.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Nazariy dars texnologik xaritasini ishlab chiqish va tashkil etish. kompyuter texnologiyalariga asoslangan o‘qitish metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi sifatida. Darslik va elektron darslikdan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish metodlari. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish.

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish, faoliyatning eng muxim qoidalarini anglay bilish.

2. Har bir talabaga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual dasturini tuzish.

3. Talabalarning yoshlik va shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda, ularga nisbatan individual munosabatni oshirish.

**B) Tashkilotchilik malakalari:**

1. Talabalar orasidagi faol bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idrok qilish.
2. Talabalarning turli xildagi jamoa, individual faoliyatini uyuştira bilish va ularni ijtimoiy faolligini bilish.
3. Talabalarga berilgan ijtimoiy topshiriqlar berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtida amaliy yordam berish.
4. Ota-onalar, keng jamoatchilik o'rtasidagi ishlarni bilish. talabalarga talablar qo'yish metodlari quyidagilar dan iborat: talabaning axloq qoidalarini, barcha predmet buyicha bilimlarni baholash, o'qitishdagi burch va ma'suliyatni bilish, mashq kilish, talabalarni mehnat qilishga o'rgatishdan iboratdir.

**Ustoz oldiga qo'yilgan talablar:**

1. Faoliyatning aniq maqsadlarini shogird xis qilsin.
2. Faoliyatni amalga oshirish shogird tashabbusi va ijodiy faollikka bog'liq. Bunda ishni taqsimlash, rejalash, xisobga olish, natija chiqarish kabilarni shogirdlarning o'zlariga xavola qilish lozim.
3. Ustoz faoliyatga pedagogik raxnamolik qiladi, shogirdlarning ijodiy odatlarini shakllantiradi.
4. Faoliyat jarayonida har bir shogird ijrochilik malakasiga ega bo'ladi.
5. Ish natijasini muhokama qilish, shogirdlarni rag'batlantirish.

Ustoz shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, so'zlash madaniyatiga, yuksak odob axloqli bulishi kerak. Shogirdlar bilan o'tkaziladigan suxbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda, ustoz quyidagi madaniyat qirralariga ega bo'lishi kerak.

Ruxiyat madaniyati-shogirdning ma'naviy extiyojlariga to'g'ri ta'sir ko'rsatish.

Mahorat madaniyati - har bir tadbirni zo'r quvonch va qalbdan tashkil qilish.

Siyosiy madaniyat - davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo'lish.

Ma'naviy madaniyat - shogirdlarning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilish.

Kasbiy qobiliyatning asosiy turlari. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi, pedagogik mahoratga erishish uchun ustozda quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i lozim.

1. Bilish qobiliyati - fanni tegishli soxalariga oid qobiliyatidir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan ustoz fanni o'quv kursi xajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani soxasidagi kashfiyotlarni xamisha kuzatib boradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati - o'kuv materialini talabalarga tushunarli kilib bayon etish, talabalarda mustakil ravishda faol fikrlashga qiziqtirish.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati. Talaba shaxsni va uning vaqtinchalik ruxiy xolatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'lik bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

4. Nutq qobiliyati - nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir.


5. Tashkilotchilik qobiliyati - talabalar jamoasini uyushtirishi, talabalarni muhim vazifalarni xal etishga ruxlantirish nazarda tutiladi.

6. Obro' orttira olish qobiliyati - bevosita ematsional, irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda tarbiya berish ma'suliyatini xis etish, o'zini xaq ekanligiga ishontirish.

7. Kommunikativ - to'g'ri muomala qila olish, o'zaro munosabat o'rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z xarakatlarining natijaviyligini ta'minlash.

### **Ustoz uchun zarur bo'lgan malakalar.**



### **O'qituvchining faoliyat tuzilmasi**



Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar orasida nomoddiy madaniy merosning sohalari bo‘linadi va har bitta tinglovchi o‘zbek musiqa merosi bo‘yicha o‘z ma’lumotlarini taqdimot (prezentatsiya) ko‘rinishida taqdim etadi. Tinglovchilar tomonidan sohaga oid bo‘lib, qamrab olinmagan tur va janrlar muhokama etiladi va to‘ldiriladi. O‘zbek musiqa merosining ro‘yxatlariga kiritilgan nomzodlar o‘rganiladi, yana qaysi nomzodlarni ro‘yxatga kiritish yoki qicharib tashlash, boshqa ro‘yxatga o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## VI. KEYSLAR BANKI

## VI. KEYSALAR BANKI

### Keys №1. “Tunda ochiq”

San’at ommabopligrini yanada oshirish tufayli ushbu sohadagi qo’shimcha qiymatning kapitalga aylanish jarayoni Teyt Modern galereyasi uchun muvaffaqiyatli o’tdi. Mazkur kampaniyani 2002 yil mart va may oylarida Londonning 8ta galereyasidan iborat birlashma o’tkazdi. Galereyalar kampaniyada o‘zlariga xos vazifalarni belgilagan bo‘lsalar ham, lekin barchalari quyidagi maqsadlarga o‘z diqqat e’tiborini qaratdilar:

- tungi soatlarning uzaytirilganligi xaqida ko‘proq tashrif buyuruvchilarni xabardor etish;
- kechki soat 6 dan keyin tashrif buyuruvchilar sonini oshirish; - galereyalar xaqidagi “zerikarli va jonga tekkan joy” degan tassavurni o‘zgartirib, galereyalar - ijtimoiy xayotning bir qismi sifatida kabi konsepsiyanı taklif etish;
- tashrif buyuruvchilar zavq oladigan alohida bir tadbirlar, ma’ruzalar, safar, jonli ijro, restoran, bar va xaridlar kabi faoliyatlar doirasini OAVda yoritib borish.

Ba’zi bir galereyalar, xususan V&A galereyasi tungi soatlargacha ikki yil mobaynida ishlab kelgan va 1500 -2000 ga yaqin tungi tashrif buyuruvchilarni jalb etgan. Boshqalari esa, masalan Milliy Portret Galereyasi xafatasiga ikki tun ochiq bo‘lib, bir yil mobaynida ishlagan edi, unga 300-400ga yaqin odam kechqurun tashrif buyurgan. Dalvik Tasvir Galereyasi o‘z tajribasida tungi tashriflarni hech qachon qo’llamagan va bunday imkoniyatdan foydalanish istagini bildirdi. Kampaniya uchun maqsadli gurux etib 25-34 yoshli san’atdan xabardor yoki mutaxasis, Londonda yashaydigan yoki ishlaydiganlar tanlab olindi. Ushbu segmentni jalb etish uchun “San’atni sevasanmi? ....

Undan zavq ol....Kechroq.” shior ishlab chiqildi.

Ushbu shior reklama brendi sifatida yurakcha shakldagi shirinliklarga biriktirildi.

Har bir galereya xaqida ma’lumot, uning joriy ko‘rgazmalari va kech tungacha ochiqligini yoritgan 190000ta risola nashr etildi. 66000tasi London va Vest Endga distribyuter agentligi tomonidan tarqatildi.

Qatnashuvchi galereyalar har biri 8000tasini tarqatdi, qolgani esa *Time Out* jurnaliga ilova qilindi.

Jurnal o‘quvchilari maqsadli auditoriyaga yoshi, hayot tarzi kabi ko‘rsatkichlari bilan to‘g‘ri keldi. Ushbu xarakatlar orqali 89%ga o‘sish kuzatildi.

Risolada galereyalarda ochilgan tungi barlar xaqida tafsilotlar, xususan Absolut vodka homiyligidagi Love Art arog‘idan kokteyli bepul taklif etilishi berildi. Absolut brendi tanlangan tashrif buyuruvchilar auditoriyasiga to‘liq mos keladi. Bundan tashqari *Time Out* har xafta tungi barlarni reklama qilib, gazetxonlarga maxsus chegirmalarni taklif etib bordi.

Kampaniya xarajatlari qatnashchilar o‘rtasida taqsimlanib, 1400 funt sterlingga teng bo‘ldi. Asosiy xarajatlarni risolalarini chop etish va tarqatish tashkil qildi. *Time Out* gazetasi homiyligida 21000, Absolut brendi tomonidan esa 8000 funt sterlingidagi xarajatlar qoplandi. Keyuard Galereyasida ochilgan birinchi tungi bar birinchi tundayoq o‘rtacha sondan ancha ko‘p bo‘lgan tashrif buyuruvchilar -300tasini jalb etdi. Milliy Portret Galereyasiga esa 800ga yaqin mijoz keldi. Xattoki eng past reytingda bo‘lgan Dalvik Tasvir Galereyasiga 200ta odam keldi. Kampaniya tugaganidan so‘ng natija ko‘plab galereyalarga shunday saqlanib qoldi. Masalan Milliy Portret Galereyasiga tashrif buyuruvchilarning soni o‘sib bordi va xozirda tungi tashrif 1000 dan ortiq bo‘lib turibdi. *Manbaa: Marlow, 2001.*

### Savollar

1. San’at muassasalarining birligidagi xarakatida qanday afzalliliklar va kamchiliklar bo‘lishi mumkin?
2. Galereyalar reklama kampaniyasini o‘tkazishda qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldilar? Ushbu ma’lumotlardan potensial mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatishda qanday foydalanish mumkin?
3. Sizning fikringizcha, ushbu kampaniya tashrif buyuruvchilarni san’atga emas balki bepul ichimlikka jalb etishga aylanib qolish xavfi qay darajada? Ushbu xavfni cheklash uchun nima qilish mumkin?

### Keys №2. “Xall Trak” teatri tomoshibanlari

Tadqiqotlar oxirigi 2 yil mobaynida Xall shahrining teatrga boruvchi aholisidan faqatgina yarmi Xall Trak teatrida bo‘lganligini ko‘rsatdi. Bunga qaraganda 10tadan 9tasi shahar markazida joylashgan dasturi turli tumanligi bilan ajralib turadigan Xall Nyu Teatriga borishi aniqlandi. Yilda teatrga uch va undan ortiq marta borgan tashrif buyuruvchilarning soni chorakdan ko‘prog‘ini tashkil etdi, ularning orasida

hech qaysi Xall Trak teatrida bo‘lmagan. Tomoshabinlarning uchdan bir qismi “yuksak” san’at shakllaridagi zamonaviy dramalarni ko‘rishni xush ko‘rishar ekan va ular orasida Xall Trak teatriga borganlar aniqlanmadи.

Xall Trakning taxlil etilgan joriy tomoshabinlari teatr tashabbuskorlari, doimiy va turli teatrlarga boruvchilar deb topildi. Ular teatrni asosan kechqurun borishga yaxshi joy deb, teatrga borish uydan tashqarida ovqatlanishga borish safari sifatida qabul qilishar ekan. Ularning yoshi 25-44 yoshda.

Bunga qiyosan, yangi potensial tomoshabinlar (tetrga boruvchi lekin Xall Trakka bormaganlar) xaqiqatdan teatrga qiziquvchilar bo‘lmagan. Ular yangilikni izlaydigan va tajriba sifatida qabul qiladigan insonlar toifasidan.

**Tashrif buyurishga ta’sir etish.** Tadqiqot so‘rovnomasи ishtokchilari bo‘yicha Xall Trak teatriga borish uchun qanday omillarga bog‘liqligi aniqlandi. Teatrga boruvchilarning yarmi shahar markazidagi yangi bino o‘ziga jalb etishini ta’kidladilar. Tanaffusda tomoshabinlar dam oladigan xona yoki zal, bar kafelarnig mavjudligi yoshroq tomoshobinlarni jalb etishi mumkin. Jon Godber John Godber badiiy direktorining mahsuloti ko‘pchilikka yoqishi e’tirof etildi. Lekin ko‘rsatuvlarning yangi shakllarini taklif etish tavsiya etildi.

**Marketing natijalari.** Xall Trak teatri marketing kommunikatsiyasidagi kamchilik potensial bozorni chuqurroq o‘rganilmaganligi kuzatildi. Teatr tomoshobinlari teatr dasturlaridan teatr tomonidan yuborilgan xatlar, tez tez tashrif buyuruvchilardan xabardor bo‘lib turishar ekan. Ayrimplari maxalliy gazetalarda berilgan ma’lumotlar bilan qiziqib turar ekanlar. Yoshlar esa asosan internetdan.

### Savollar

1. Xall Trak teatri o‘z missiyasini oshirishda qanday maqsad va vazifalarni belgilashini taklif qila olasiz.
2. Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qanday strategiyalarni ishlab chiqasiz. Ushbu strategiyalarni tadbiq etish uchun marketing taktikasini ishlab chiqing.
3. Ushbu rejalarini ishlab chiqishda ma’lumotlar ro‘yxatini tuzing. Agarda Siz Teatr marketing menejeri bo‘lsangiz ushbu ma’lumotlar yetarlicha bo‘larmidi?

### Keys №3. Opera hamkorligi

Sidney Opera Xaus butun dunyoda mashxur bo‘lgan zamonaviy arxitektura dizaynidagi binolardan birida joylashgan. Opera Xaus

tashkiliy rivojlanish innovatori sifatida uning ijrochi direktori Maykl Link to‘rt yillik boshqaruvi ostida shakllandi.

Link Avstraliya Kengashidagi teatr menejmentida milliy san’atni qo‘llab quvvatlovchi innovatsion shaxs sifatida e’tirof etilib 1998 yilda Avstraliya tasviriy institutini boshqaruvini oldi. Uning boshqaruv faoliyati Opera Xaus uchun ikki muhim tarixiy voqealar – Yangi yil va 2000 yil Sidney Olimpiadasiga to‘g‘ri keldi. Bunday hodisalar tashkilot uchun ish jarayonining yangi yondashuvlarini talab etardi va Link Operani “o‘rganuvchi tashkilot” ga aylantirishga axd qildi. Ushbu atama amerikalik menejment namoyandasini Piter Senj (Peter Senge) tomonidan 1990 yilda “Beshinchি Fan” kitobida yoritilgan bo‘lib, unga binoan tashkilot insonlar kabi tizimli ravishda rivojlanishi va tajriba almashishlari lozim. Albatta uning afzalligi bir butunligida, o‘rganib borish esa tashkilot muhim faoliyatlaridan biri sifatida tashkiliy quvvatni oshirishda katta kuchdir. Boshqacha qilib ta’kidlanganda esa, “uning a’zolari jamoaviy xabardorlik va unumidorlikni kuchaytirish va qo‘llab quvvatlashga doimiy diqqat e’tiborini qaratib turadilar” (Senge *et al.*, 1994).

Opera Xausda muvaffaqiyatga erishish yo‘li barcha xodimlarni ushbu yo‘nalishgaqo‘yish deb belgilandi.

Link buni quyidagicha izohladi: “Opera Xausda ishlar qanday bajarilishiga butun shtatni jalb etish yondashuvini biz qabul qildik. Natija –bu ish joyi bo‘lib, bu yerda tashkilot rivoji uchun har bir xodim o‘z xissasini qo‘sish uchun vakolat olgan. Bu shaxsning o‘sishi uchun ko‘maklovchi ish joyi bo‘lib, bunda innovatsiyalar, mahoratni ko‘rsatish, “buni qila olaman” degan xatti xarakat tan olinadi va rag‘batlantiriladi”. Ushbu jarayoning bosh g‘oyasi turli sohalarni qamrab oluvchi loyiha guruxining tashkil topishi bo‘lib, unga tajribasi va funksional asosi har xil bo‘lgan xamkasabalar kiritildi.

Ularning vazifasi muassasaning 2000 yilga tayyor bo‘lishi, ya’ni kompyuterga muvofiqlik va tovar va xizmatlarga yangi soliqlar bilan tanishish. Shu bilan birga madaniy o‘zgarishlarga bo‘lgan zarurat masalasi muassasaning turli bo‘limlari va pog‘onalari tomonidan o‘rtaga qo‘yildi. Konsepsiya Komandasi deb nom olgan ushbu ishchi gurux e’tiborini muassasaning o‘zini hamda bu yerdagi har bir shaxsni takomillashtirishga qaratdi.

## VI. GLOSSARY

## VI. GLOSSARIY

Ingliz tilidagi	Termin	O'zbek tilidagi
Theatre	Teatr	<b>Teatr</b> – (yun. so'z bo'lib, tomoshagoh degan ma'noni anglatadi). San'at turi; uning o'ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o'yinijarayonida yuzaga keladigan sahnnaviy voqeadir. Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og'zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy-estetik tarbiyasida muhim o'rinn tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriylar san'at, raqs, memorlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatr – san'atning muhim bir xili bo'lib, u qadimgi Gretsiyada tug'ildi.
Decoration	Teatr dekoratsiyasi san'ati	ssenografiya– tasviriylar san'atning teatr san'ati bilan bog'liq sohasi; dekoratsiya, liboslar yorug'lik, sahna texnikasi vositasida spektaklning tomosha obrazi (ko'rinishi)ni yaratish san'ati.
Music	Teatr musiqasi	1. keng ma'noda - barcha musiqali (opera, balet, operetta, musiqali drama, musiqali komediya, vodevil, myuzikl va b.) hamda dramatik spektakllar uchun yozilgan musiqa. 2. tor ma'noda – dramatik teatr spektakl (drama, komediya, tragediya)lari musiqasi
Theatre Science	Teatrshunoslik	teatr tarixi va nazariyasini o'rganuvchi fan. Mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida teatr san'atining umumiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda XX asrda shakllangan. Teatrshunoslik dastlab, asosan drama teatrлари faoliyati bilan bog'langan bo'lsa, keyinchalik opera va balet, operetta, musiqali drama, bolalar teatri, qo'g'irchoq teatri, teatr ta'limi, sahna nutqi, dekoratsiya san'ati, teatr libosi va pardozi, sahna harakati, havaskorlik teatri sohalari va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.
Subject	Syujet	– (fr. va lot. so'z bo'lib, predmet, mazmun, mohiyat, narsa degan ma'nolarni anglatadi). 1. Badiiy asarda, filmda voqeа-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o'zaro aloqa; badiiy asar mazmuni. 2. Tasviriylar san'atda: tasvir obyekti, predmeti. Syujet –badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda kechadigan,

		qahramonlar o‘rtasidagi aloqlardan tarkib topgan voqealar tizimi.
<b>Acting technique</b>	<b>Aktyorlik san’at</b>	san’at yaratish sasna qiyofalarni (rollarni) teatrda tomoshalarning taqdimotchilari
<b>Atmosphere</b>	<b>Atmosfera</b>	hayajonli bo;yash har kimning harakatlari, sahnaning, epizoda, bog‘liq bo‘lgan tavsiya etilayotgan holatlar, voqealardangi tugun, nizoni, tempo-ritma, "donlar", bog‘liqligi harakati va faoliyat yurituvchi shaxslarda uni fe'l-atvorini, yordam beradi.
<b>Proscenium</b>	<b>Avanssena— sahna</b>	dahliz bir bo‘lak sahnaning, bir qancha namoyish etilgan tomosha zali. (Rampa). sifatida o;yin uchun belgilangan maydoncha sahna oldi keng foydalanildi oper va balet spektakl dramatik teatrlarda sahna oldi xizmat qiladi. Asosan joy harakatlari uchun katta bo‘lmagan sahnalar oldidagi yopiq parda.
<b>Type, theatrical character</b>	<b>Amplua— o‘xshash</b>	fe’liga ko‘ra rolini, tegishli ma’lum aktyora (aktrisalar) tomonidan bajariladigan rollarning tipi.
<b>Atellana</b>	<b>Atellana-atellana</b>	(qadimgi rim xalq tomoshasi;odiiy xalq hayotini tasvirlovchi qisqa sahna asari)
<b>Annotation</b>	<b>Annotatsiya- annotatsiya</b>	(qisqa qaydlar, kitobning qisqacha mazmuni)
<b>Ballad</b>	<b>Ballada-</b>	(lirik-epik poeziyaning bir turi)
<b>Ballet</b>	<b>Balet-balet</b>	(teatr san’ati turlaridan biri); raqsga asoslangan muzikali-dramatik sahna asari)
<b>Properties</b>	<b>Butaforiya— sahnadagi</b>	yasama jihozlar qalbaki fanlar ( haykaltaroshlik, mebel, idish, bezaklar va boshqalar. Asar voqealarini ochishga yordam beruvchi narsalarni.
<b>Buffoon</b>	<b>Buffonada</b>	kulgili teatr tomoshasi qabul qilish, foydalanilayotgan teatrda; asosan tashqaridan qaraganda komik bo‘rttirib yuborish, ba’zida tartibli harakatlarni, ko‘rinishlari

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagи “O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi PQ-4068-son Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagи “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4584-son Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

## SH. Maxsus adabiyotlar

21. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

22. Avdeyva L. O‘zbek milliy raqsi tarhidan. - T.: Mukarrama Turgunboeva nomidagi “O‘zbek raqs”milliy raqs birlashmasi, 2001.- 204b.

23. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

24. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

25. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 b.

26. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

27. Qodirov M. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar. – T: Fan, 1993. – 205-b.

28. Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san’atlari. – T: G‘.G‘ulom nom. nashriyot, 1996. – 64-b.

29. Qodirov M. “Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun” - T: “Mumtoz so‘z”, 2011. - 528 b.

30. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

31. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Y. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF ; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf).

32. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. <https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf>.

33. Sayfullayev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. – T: «Fan va texnologiya», 2014. - 152 b.
34. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
35. Chaplin Charlz Spenser. O sebe i svoyem tvorchestve. M.: Iskusstvo. T. 1 - 1990.350 s.
36. Fayziyev X. Ovozsiz kinematografdagи operatorlik san'ati tarixidan. T., 2008. – 180 b.
37. Freylix Teoriya kino: ot Eyzenshteyna do Tarkovskogo. M.: Iskusstvo, TPO-1992, “Istoki”, -351 s.
38. O‘zbekiston tarixi va madaniyati. SH.Karimov va boshq. Toshkent: 1992,O‘qituvchi, - 294 b.
39. O‘ngboyeva B.O‘. O‘zbekistonda 1920-1956 yillarda kino va teatr san'ati tarixi. Diss avtoreferati. –T., 2018. –55 b.
40. Yurenev R. Kratkaya istoriya kinoiskusstva. - M.:Akademiya, 2000.- 288
41. Andrew Paquette. An Introduction to Computer Graphics for Artists.- Springer Publishing Company, Incorporated, USA 2013.
42. Agel H. L'espace cinématographique. Paris, ed. J.-P.Delarge-ed. Universitaires, 1978,219 p.
43. Basic Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage, UNESCO, Paris, 2014 y.
44. Benjamin Grosbayne. “Techniques of modern Orchestral Conducting”. Harvard University Press. USA, 2011 y.
45. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
46. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
47. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
48. Mitchell. H.Q. , Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
49. Mitchell. H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
50. Raymond Bisdorff, LuisC. Dias, Patrick Meyer, Vincent Mousseau, Marc, Pirlot. Evaluation and Decision Models with Multiple Criteria.- Springer-Verlag Berlin Heidelberg. - Germany, 2015 y.
51. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
52. Sibsan. “The modern conductor”. Pearson Prentice Hall. Angliya, 2004.

### **III. Internet saytlar**

53. <http://edu.uz>
54. <http://lex.uz>
55. <http://bimm.uz>
56. <http://ziyonet.uz> –
57. <http://www.dsni.uz>.

58. http:[www.kino-teatr.ru](http://www.kino-teatr.ru)
59. <http://www.artsait.ru>
60. http://belcanto.ru/
61. http://music.edu.ru/catalog
62. http://artyx.ru/